

4P

Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'rifat



1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2021-yil 1-sentabr, chorshanba № 35 (9360)

Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik!





2 Ko'pchilik do'konlar rozi bo'lmadi. Oxiri qidirib bittasini topdik. U ham 24 foiz deb turibdi.

O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 30 yilligiga

Mustaqillik tilaklari

Men davlat mustaqilligining 7 yilligiga bag'ishlab bino peshtoqlariga osilgan shiorlar hali yig'ishtirib olinmagan, radio-televideniya vatanparvar shoirlarning shukronalik haqidagi she'rlari jaranglab turgan bir paytda tug'ilganman.

Shu sababdan adolatli, tinch, farovon bu zamonlarga qanday erishganimiz, odamlar ungacha qanday qiyinchiliklarni boshdan kechirgani haqida to'la tasavvurga ega emasman. So'rasangiz, momomning "bir quti gugurt bir tiyin edi" turkumidagi uzundan-uzoq hikoyalari, davlat telekanallari orqali bayram arafasida efirga uzatiladigan, qo'rqinchli musiqqa hamrohligidagi hujjatli filmlardan esimda qolgan qismlarni gapirib berishim mumkin. Undan tashqari, boshqalarga o'xshab Rossiyaga ketmay, kasbini yaxshi ko'rgan uchun maktabda ishlayotgan, olgan oyligi 2-3 xalta uning puli, lekin shuni ham vaqtda ololmay, pana-panada so'kinib qo'yadigan ustozlarning darslarida ham bu haqida ko'p gapirilgan.

Har bir bayram unga aloqador xotiralarini tiriltiradi. Masalan, Yangi yilni nishonlayotganimizda o'tgan galgi bayramda momomning yonimizda bo'lgani, undan oldingisida sigirimiz bolalagani, qo'shni qishloq bolalari bilan mushtlashganimiz... esimga tushadi. Davlat mustaqilligining 30 yilligini nishonlash arafasida turibmiz. Bugun ayni sana ham juda ko'p narsani yodimga soldi.

2004-yili Mustaqillik kuni qo'shni Mamarasul aka qishlog'imizda birinchi bo'lib Rossiyaga ishlagani ketgan edi. O'shanda qishloqning yarmi uning uyiga yig'ilgan, mehribon momolarga



qo'shilib, ma'nisini anglamasak-da, biz ham ko'zyosh to'kib kuzatganmiz...

Otam o'qituvchi. Har yilgiday yozda bizga maktab forma olib berish uchun kardikorlik qilgani shaharga ketib, ishlari bitmay qolgani sabab hali qaytib kelmagan edi. "Ro'zg'or" bo'shab qolgan. Bobom nafaqa puli tushadigan plastik kartasini qo'limga tutqazdi-yu, bir qarindoshimizga qo'shib 40 kilometr uzoqlikdagi tuman markaziga jo'natdi (yaqin atrofdagi do'konlarda terminal yo'q). Borib plastikdagi pulni naqdlashtirishim kerak. Ko'pchilik do'konlar rozi bo'lmadi. Oxiri qidirib bittasini topdik. U ham 24 foiz deb turibdi. Bobom 20 foizdan ortig'iga ko'nma degan. Noiloj quruq qo'l bilan pulini ertaga beraman, desangiz ham og'rinmay uyingizgacha eltib qo'yadigan avtobus yoniga qaytdim. Birozdan so'ng qadrdon avtobus

mustaqilligimiz sharofati bilan radioda yangrayotgan "Adaying bo'lgaymiz seni O'zbekiston!", degan qo'shiqning ritmiga mos ravishda chayqalib qishloq tomonga yo'naldi.

2013-yil 1-sentabr. Kollejda o'qiyman. Arzonroq kvartira topish uchun ertaroq shaharga kelgandim. Kursdoshlarimning biri shifoxonada ekanini aytishdi. "Mesniy"lardan bir-ikkitasini olib ko'rgani bordim. O'zi otday. Hafta o'tmasdan boshlanadigan paxta terimiga bormaslik uchun ko'richagini atayin kes-tiribdi yaramas!

O'tgan yilgi bayram ham juda esda qolarli bo'ldi. Yarim yil deganda in-sof kirib, Ta'til bahonasida 1-2 kunga uyga borgan edim. Endigina hol-ahvol so'rashib turgandik ham hamsoyamizning o'g'li chaqirib qoldi. Gazmoshin kelyapti ekan! Ayam mendan ko'ra

gaz kelishini ko'proq kutgan shekilli, diydoringa to'yar-to'ymay qo'limga bo'shab qolgan gazbalonni tutqazdi-yu, katta yo'ning boshiga jo'natib yubordi. Har 200-300 metrda bir to'p odam — xotin-xalaj, keksa-yosh. Men ham hamsoyalarning yoniga turib oldim. 18:00 da borgan bo'lsam, soat 22:00 bo'lyapti ham hali gazdan darak yo'q.

— Endi uyga ketaversak bo'lar, Farhod aka. Bugun keladiganga o'xshamaydi.

— Yo'lda ekan, bu gal ham ololmasak yana ikki oy qorasini ko'rmaymiz, kutaylik...

Tuman markazidan gazbalonni orqalab yo'lga chiqqan mashinalar, ertasi kuni soat 23:00 larda keldi. Shunda ham ana kelar-mana kelar deb ikki kun kutgan odamlarning yarmiga-da yetmadi. Men Konstantinopolni zabt etgan Sulton Mahmud ham mag'rurroq holda uyga kirib kelganidam hamma uyuga ketgan edi.

Erta tongda avtobusga chiqib Toshkentga jo'nadim...

Bu galgi Mustaqillik kuni tuhfa etgan go'zal xotiralar bilan omon bo'lsa kelasi yil o'rtoqlashamiz. O'zi kompyuter yoniga sizni bayram bilan tabriklab, ikki og'iz tilak bildirish uchun o'tirgan edim.

Musaffo osmonimizga ko'z tegmasin. Kun kelib chet ellarda sarson bo'lib yurgan millionlab millatdoshlarimiz ham shu osmon ostida xotirjam yashasin. Chalojon Ta'lim tizimini qog'ozlar-u balandparvoz gaplar bilan davolab bo'lmashligini tushunib yetadiganlar ham tug'ulsin shu tuproqlarda. Jamiyatimiz yolg'ondan xalos bo'lsin! Ijtimoiy soha vakillarining ham ish haqlari oshib, odamga o'xshab yashaydigan zamonlarga ham yetaylik. Monopol tashkilotlar va KATTA korruptsiyalarning kishanlaridan ozod bo'lgan kunlarimizni ham shunday nishonlash nasib etsin. Davlat mustaqilligining 30 yilligi bilan tabriklayman, azizlar!

Humoyun QUVONDIQOV

ISTIQLOL, VATAN, XALQ...

Bu so'zlarning yuraklarga solgan hayajonini ifodalash mushkul. Yurt mustaqilligi e'lon qilingan sana yaqinlashgan sari xalqim farzandiman degan har bir inson borki, dilida surur va tilida shukurlar bilan qutlug' ayyomni kutadi. Jumladan, kamina ham.

Istiqlol yuragimga taskin, qalbinga halovat bag'ishlaguvchi so'z! Istiqlol biz uchun, avvalo, o'zligimizni anglash, insoniy qadrimizni, urf-odat va ma'naviy boyliklarimizni, muqaddas dinimiz, buyuk ajdodlarimizga bo'lgan cheksiz g'urur, ifixorimizni tiklash, yosh avlodga milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida Ta'lim berish imkoniyatlarini ochib berdi. O'zbekman, o'zbek tili ustoziman, lekin birgina so'zning salmog'ini ko'tarish, bu so'z ortidagi sharaf-u shonni saqlash, keyingi avlodga munosib topshirish mas'uliyati biyron tilimni tutub turgandek bo'laveradi. Hurlik in'omi bo'lgan tinchlik, osuda hayot, farovon turmush uchun yonib yashash, osoyishtaligini asrab-avaylash uchun kurash, yurt obodligi, istiqloq bar-

davomligi uchun kerak bo'lsa jon halovatidan kechib yashash kerak, degan o'ylar bir zum tinch qo'ymaydi.

Qog'oz qoralarkanman, ko'z oldimga hur kunlarimiz uchun mol-u jonini fido qilgan buyuk insonlar keladi. O'tmishdagi Ma'rifatparvarlar harakati — Ta'limga e'tibori, ilm olishga da'vati, xalq ko'zini ochishga, jaholatdan qutqarishga bo'lgan urinishlari, jonbozliklari biz uchun katta ibratdir. Adabiy merosimizni yosh avlodga yetkazish, ular qoldirgan ma'naviy merosdan unumli foydalanishda men kabi uslubchi ustozlar doimo vazifamizga sidqidildan yondashib, yangi Ta'lim metodlarini qo'llagan holda, adabiy saboqlarni yo'lga qo'ymoqdamiz.

Mustaqillik kuni Vatanimiz tarixida, xalqimiz qalbidagi abadiy muhrlanib qoladigan sana. Qutlug' to'yga taraddud har bir Ta'lim maskanida qizg'in pallada. Ona tili va adabiyot ustozlari ham bu borada bir qadam oldinda. Mustaqillik darsini ko'tarinki ruhda o'tkazishga tayyorlanmoqdalar.

Dilfuzaxon ISOQOVA,

Uchko'prik tuman xalq ta'limi

bo'limi ona tili va adabiyot fani metodisti

O'qituvchi ijodidan

YANGI O'ZBEKISTON

Yurtida shodiyona, ajoyib bayram,
Yurtimiz go'zaldir kundan kun biram,
Ta'riflashga hatto o'jizdir til ham,
Yangi O'zbekiston — el aro doston,
Jannatmakon yurtim — hur O'zbekiston.

Ajdodlarni yod etmoq erur farzimiz,
Bobolar oldida ko'pdir qarzimiz,
Shu yurtga farzandim, yo'qdir arzimiz,
Yangi O'zbekiston — el aro doston,
Jannatmakon yurtim — hur O'zbekiston.

Ustozini e'zozlagan yurt bo'ldi bu el,
Yoshlariga eshik ochgan yurt bo'ldi bu el,
Ma'rifat ziyosin sochgan yurt bo'ldi bu el,
Yangi O'zbekiston — el aro doston,
Jannatmakon yurtim — hur O'zbekiston.

Ming-minglab daholar qaysi yurtda bor?
Ular bois bugun bizga tole' yor,
Gullab-yashnayvergin, chekma hech ozor,
Yangi O'zbekiston — el aro doston,
Jannatmakon yurtim — hur O'zbekiston.

Ro'zimurod BOLQIYEV,
Mirzacho'l tumanidagi 10-maktabning
ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchisi



"30 yillikka 30 ta mukofot" tanloviga

Kasbimdan faxrlanaman

Men, hattoki, universitetni tamomlayotgan paytimda ham o'qituvchi bo'lishimni tasavvur qila olmasdim. Bitirib boshqa ishning boshini tutish rejasida edim. To'g'risini aytсам, o'qituvchi bo'lishni umuman xohlamasdim va bunga sabablarim ko'p edi.

Bir-ikkita so'z aytib, endi aqlimni tanigan paytlarimda fahmladimki... O'qituvchilar oilasida dunyoga kelganman. Ota-onam ishdan kelishgach, yarim tunga qadar, ba'zan esa tongga qadar o'quvchilarning daftarlarini tekshirishar, ertangi darslar uchun konspekt yozishar, ko'rgazmali qurollar tayyorlashar edi.

Og'ir mehnatdan ularning asablari zo'riqib ishlayotgani, ko'z nurlari daftarlarga to'kilib borayotgani, bir yoqda e'tiborsiz qolayotgan o'qituvchilarning haminqadar bo'lgan moddiy ahvoli kabi masalalar men uchun eng qadrlı insonlarni ezib borayotgani uchun ham, garchi o'qituvchilik kasbining sharafligi va azimatini ich-ichimdan his etsam ham, baribir, meni bu sohadan qattiq sovitardi.

Orada qariyb o'ttiz yillik ta'lim sohasi, ilm-fan va o'qituvchilar uchun chinakam bo'hronli davr bo'ldi.

Eh-he... U kunlarda aziz ustozlar xor bo'ldi, ta'lim sohasi deyarli xarob bo'ldi.

Har qanday odam, u fermermi, hokimmi, prokuraturaning qorovulimi, o'qituvchini qudek ishlata olar edi.

Paxta dalalarida kapalak tutib, bankalarga qamagan ham, mahallasidagi simyog'ochlarga narvon qo'yib, qo'shnilarining elektr hisoblagichlari ko'rsatkichini yozib yurgan ham, soliq yiqqan ham, go'ng tashigan ham yoki qo'lini loyga botirib, namunali uylarni suvagan ham o'qituvchi bo'ldi.

O'qituvchilarga munosabat o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Kadrlar sifatining pasayishi, xalqning umumiy fikrlash darajasi tushib ketishi, ishsizlik, millionlab mardikorlarning paydo bo'lishi va dunyo bo'ylab ish izlab sarson-sargardon bo'lishida, aynan ta'limga va muallimlarga bo'lgan salbiy munosabatning ta'siri katta.

Bular odamlarning bu ulug' kasb-

ga, ilm-fanga, ustozga hurmatini keskin ravishda pasaytirib bordi.

O'qituvchilik kasbini tanlashni istamaganim tarixi mana shunday edi.

Hamma talabada bo'lgani kabi, moddiy muammolardan charchaganim uchun, biroz "nafas rostlab", keyin boshqa yo'l tutishni mo'ljallab, vaqtincha o'qituvchilikni boshladim.

Maktabga keldim-u, hammasi o'zgarib ketdi.

U yerda men qalblari orzulariga limo-limo-lim, begunoh qorako'zlarni ko'rdim...

Ular, garchi ba'zilar juda sho'x bo'lsalar ham, har soniyada o'zlari yashayotgan dunyo haqida o'zlari uchun bir yangi narsa kashf qilishni, shaxsiyatlarini, xarakterlarini uchun nimanidir o'zlashtirib olishni istashar edi.

Bu umidli go'daklarning qalblari shu qadar tozaki, ularga bog'lanib qolmaslikning iloji yo'q.

Darslardan keyin qo'shimcha pullik to'garaklar ham o'ta boshladim.

Kunlardan bir kun oldimga bir ayol keldi, oddiy dehqon ayoli. Sochlari to'zg'igan, yuzi quyoshda obdon qoraygan, qabargan barmoqlaridagi yoriqlarda kir qorayib qolib ketgan... U menga bir

dasta g'ijmlanib, ezilib ketgan mayda pullarni uzatdi va dedi: "Mening bolam ham o'qisin! Mening bolamni ham o'qiting. Men o'qimadim, bolam odam bo'lsin!"...

Uyga keldim, qani uxlab bo'lsa... Ko'zlarimni yumsam, xayollarim orasidan uning nidosi yorib chiqaver edi: "Mening bolam ham o'qisin!"

Tamom, o'qituvchilik mening taqdirim edi, buni tushunib yetdim. Mana, o'n besh yildirki, hanuz o'sha nido qulog'imda yangraydi.

Yuzlab shogirdlar yetishib chiqishdi va dunyoning turli tomonlariga tarqab ketishdi. Faoliyatim davom etmoqda. Bayramlarda ularning biri Amerikan, biri Yevropadan, biri Koreyadan, boshqasi vatanimizdan turib tabrik yo'llashadi. Hech qaldirg'ochlar bolasini uchirma qilgan kunga guvoh bo'lganmisiz? Haqiqiy bayram qilishdi o'sha kuni. Biz ustozlar ham shogirdlarning muvaffaqiyatlaridan kichkinagina yuragimizda olam-olam suruni tuyamiz. Bu — bizning taqdiri-miz.

Aytgancha, oxirgi yillardagi ta'limga va o'qituvchilarga munosabat mutlaqo o'zgariganini e'tirof etmay iloj yo'q. Ishonamanki, bu ijobiy islohotlar o'zining shirin-shakar mevasini albatta beradi va yana umid qilamanki, yurtimiz eng rivojlangan mamlakatlardan biriga aylanadi.

Alisher SOTIVOLDIYEV,
Kosonsoy tumanidagi
52-IDUM o'qituvchisi

Menga baxt tutgan diyor

Onam Oysara Temirova "Hurmat belgisi" ordeni sohibi, til va adabiyot fani o'qituvchisi bo'lgan. O'qituvchilikning qanchalik mashaqqatli, savobli ish ekanligini onajonim timsolida ko'rib o'sdim. Onam va ustozlarimga nisbatan uyg'ongan havas meni 1987-yili Rus tili va adabiyoti pedagogika institutiga yetakladi. Niyatlarim ijobat bo'lib, talabalik baxtiga muvassar bo'ldim. Omadimni qarangi, bu yerda ham vijdon amriga bo'ysunib, halol ishlaydigan ustozlarga duch keldim. Imkoniyatdan foydalanib, ulardan chuqur bilim olishga harakat qildim.

1991-yili 4-kursga o'tganimga Vatan mustaqilligi e'lon qilindi. Uning sharoifati bilan sentabr oyidan to dekabr oyigacha cho'ziladigan paxta yig'im-terimidan ozod bo'ldik. Bu biz talabalar uchun mustaqilligimizning birinchi tuh-fasi edi.

Oliy dargohni tugallab ona yurtim Surxon-daryoga qaytdim. Pedagogik faoliyatimni o'zim o'qigan Qiziriq tumanidagi 1-maktabda boshladim. Atrofimda ustozlarim, onajonim menga tirgak bo'lishdi, chunki sinfxonaga kirib o'quvchilar bilan yuzma-yuz kelgandagina, bu naqadar zahmatli va mas'uliyatli mavqe ekanligini his qildim. Hattoki, bu kasbni tanlab to'g'ri qildimmi degan hadik paydo bo'ldi. Lekin orqaga yo'l yo'qligini, davlatim oldidagi burchimni bajarish kerak ekanligini his qildim. Vijdon amriga quloq tutib, o'z kasbimga mas'uliyat bilan yondashishni birinchi o'ringa qo'yib ish boshladim. 1994-yildan Termiz tumanidagi 6-maktabda ishlay boshladim. Bu maskanda ham mahoratli ustozlardan ish o'rgandim, tajriba orttirdim.

Fanimni o'quvchilarga chuqur yetkazib berish uchun o'z ustimda tinmay ishladim va ikki yil ichida avval birinchi toifali, keyin oliy toifali bo'ldim. Bu esa maktab jamoasi orasida hurmatga sazovor bo'lishimga, rahbarlarimizning menga nisbatan ishonchi oshishiga va dars soatlarim ko'payib, maoshim ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Eng muhimi, o'zimga bo'lgan ishonchim ortdi. Bu natijalardan ilhomlanib, bilimimni mustahkamlashda davom etdim. 2020-yil kuzda O'zbekis-

ton va Rossiya Federatsiyasi Xalq ta'limi va ziriqlari hamkorligida "ZO'R" ("KLASS") loyihasida ishtirok etib, til bilish darajasining C-1 sertifikatiga ega bo'ldim. Mustaqilligimizning yana bir inoyatini o'g'lim Sirojiddin Turdiyev taqdiriga bog'layman. U bir necha marta yengil atletikaning yugurish turi bo'yicha O'zbekiston, o'smirlar orasida O'rta Osiyo chempioni bo'lgani uchun Prezident qaroriga asosan OTMga imtihonsiz, davlat granti asosida qabul qilindi. Hozir Termiz davlat universitetining jismoniy madaniyat yo'nalishining 3-kurs talabasi.

Bu vatanda men baxtli bolalikni, jo'shqin yoshlikni o'tkazdim. Mustaqilligimiz davrida samarali mehnat qilib obro'-e'tiborga sazovor bo'ldim, shu yurtda baxtimni, oilamni topdim, turmush o'rtog'im bilan birgalikda farzandlarimizni yurtga sodiq fuqaro etib tarbiyalashga harakat qilmoqdamiz. Endi aytinch, shuncha imkoniyat va sharoitni yaratib bergan vatanimni sevmay bo'ladimi? Uning olamga mashhur qadimi, salobatli obidalarini, jahonga tanilgan buyuk ajdodlarim bilan g'ururlansam, Yangi O'zbekistondagi bunyodkorliklar, yoshlarimizning hamma sohada erishayotgan yutuqlari, ajdodlarimizga munosib avlod ekanligi menda iftixor hissini uyg'otadi. VATANIM — menga baxt tutgan go'sha!

Mohigul DO'STMURODOVA,
Termiz tumanidagi
12-IDUMning rus tili va adabiyoti fani
o'qituvchisi

Mustaqillik yillarida xalqimiz hayotida tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Vatandoshlarimiz bu davr ichida o'zining buyuk salohiyati, mustahkam irodasi va sabr-toqatligini namoyon eta oldi. Mana bugun qaysi jabhaga qaramang, sport, fan-texnika, ta'lim, ishlab chiqarish, eksport, import va boshqa sohalarda talay yutuqlarni qo'lga kiritganimizni ko'rish mumkin.

Amaliy fanlarga e'tibor kuchaymoqda

2017–2021-yillarda Respublikamizni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini hayotga joriy etish natijasida ko'plab yutuqlarga erishildi. Bu ijobiy o'zgarishlar pedagoglar faoliyatida ham ko'zga tashlana boshlandi. Ular uchun keng qamrovli tanlovlar, ehtiyoj yuqori bo'lgan mutaxassislik bo'yicha qayta tayyorlovdan o'tish imkoniyati, maxsus sirtqi ta'lim shakli yo'lga qo'yilgani o'qituvchilarga keng imkoniyatlar eshigini ochdi.

Men "Ustoz-2020" tanlovida qatnashib, boshqa hududlardagi o'qituvchilarning ish faoliyati, yutuqlari, xonalarning jihozlanishi bilan tanishib, fikr almashdim. G'oliblikni qo'lga kiritgan o'qituvchi Dubay shahriga sayohatga yuborilgani boshqa o'qituvchilarni o'z ustida ko'proq ishlashi uchun yanada ruhlantirdi.

Ta'kidlash kerakki, so'nggi yillarda amaliy fanlarning qadr-qimmatini oshdi. O'quvchi yoshlarimizning texnologiya, musiqa, tasviriy san'at va chizmachilik, jismoniy tarbiya fanlaridan erishayotgan yutuqlari tahsinga sazovor. Buning natijasida, maktabda amaliy fan o'qituvchilarining to'garaklari muntazam faoliyat yuritib kelmoqda. Men ham "Hunarli qiz — oila ko'rki" to'garagini olib boraman. Bu to'garakda qizlarni hayotga tayyorlash maqsadida har xil mehnat turlarini o'rgatayman. Bu bilim-ko'nikmalar bilan o'quvchilarimiz turli larvada ishtirok etib, faxrlı o'rnlarni egallab kelishmoqda.

Shohista SALAYEVA,
Xonqa tumanidagi
7-maktabning texnologiya fani o'qituvchisi

Yangi o'quv yili chorrahalarida

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bir anjumanda "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala bu — yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgarib bormoqda. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim — yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan" degan fikrni bildirgan edi.



Ushbu fikrlar zamirida katta maqsadlar ko'zlangani anglashimiz mumkin. Bugun ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar esa mamlakat kelajagi bo'lgan yoshlarning sifati ta'lim olishi uchun mustahkam zamin yaratayotganidan dalolatdir.

Boysun tumanida yangi o'quv yilida o'quvchilari-mizning sifati ta'lim olishi uchun umumta'lim maktablarida tayyorgarlik jarayonlari yuqori darajada olib borildi. 42 ta maktabda qurilish-ta'mirlash, rekonstruksiya ishlari uchun davlat budjetidan mablag' ajratildi. Har bir maktabga zarur shart-sharoitlar yaratilib, yangi o'quv yiliga tayyorgarlik ishlari puxta amalga oshirildi, bu o'quvchilarning har yilgidan ham yaxshiroq sharoitda tahsil olishiga imkon beradi.

Olis, tog'li hududlardagi maktablarda ham o'quvchilar uchun barcha sharoit yaratilgan ta'lim maskanlari faoliyat yuritishiga erishildi. Masalan tuman markazidan 70 km uzoqlikdagi Qo'rg'oncha mahallasida joylashgan ta'lim muassasalarida ham sayyor qabullar tashkil etilib, tegishli tartibda muammolar o'rganildi va ularni hal etishning zarur choralarini ko'rdi.

Malakali kadrlarning o'quvchilarga ta'lim berishini yo'lga qo'yish maqsadida tumanimizga olis hududlardan o'qituvchilar jalb etildi. Toshkent, Buxoro hamda Farg'ona viloyatlaridan kelgan o'qituvchilar yoshlarga ta'lim bermoqda. Bu ta'lim sifatini oshiribgina qolmay pedagoglar o'rtasida tajriba almashish imkonini beradi.

Yangi o'quv yili oldidan xalq ta'limi muassasalari rahbarlarining mas'uliyati va tashabbuskorligini, pedagog xodimlar kasbiy mahoratini yanada oshirish, o'quv das-

turi va darsliklardagi yangilik, o'zgarishlar bilan tizim xodimlarini yaqindan tanishtirish, yangi o'quv yilidagi muhim va ustuvor vazifalarni belgilab olish maqsadida tuman o'quv-seminari tashkil etildi.

Ta'lim sifati nisbatan yuqori ta'lim muassasalarining tajribasini boshqa umumta'lim maktablarida joriy etish maqsadida namunali maktablar negizida tayanch maktablar tashkil etildi. Yangi o'quv yilidan boshlab, maktab rahbarlarining ta'limda tashabbuskorlik va innovatsiyalarni joriy etish borasidagi har o'quv yilidagi faoliyatini monitoring qilib borish yo'lga qo'yilishi belgilandi. O'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish maqsadida ishdan ajralmagan holda masofaviy shaklda har yili bir marotaba malaka oshirish kurslariga jalb etilishi belgilandi.

O'tgan o'quv yilida Xalq ta'limi vazirligi hamda Rossiya Federatsiyasi ta'lim vazirligi o'rtasida "O'zbekiston Respublikasi maktablarida rus tili fanini va umumta'lim fanlarini rus tilida o'qitish sifatini oshirish" loyihasini amalga oshirish bo'yicha tumanimiz ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan 36 nafar o'qituvchining bilim darajasi, rus tili faniga oid o'quv-metodik ta'minot hamda masofadan ta'lim olish uchun mavjud sharoitlar o'rganildi, rus tili fani o'qitish metodikasini rivojlantirish uchun ta'sir etadigan omillar o'rganildi. Yangi o'quv yilida esa, rus tili fan o'qituvchilarining kasbiy malakasini oshirish ishlari amalga oshirildi.

English Speaking Nationning (AQSH) yozgi treninglar dasturi doirasida tumanimizdan 26 nafar ingliz tili o'qituv-

chilari intensiv mashg'ulotlarga qatnashdi. Yangi o'quv yilidan boshlab tumanimizdagi barcha fan o'qituvchilarining ingliz tili ko'nikmalari hamda ularning pedagogik va psixologik bilimlarini takomillashtirish nazarda tutilgan.

Buning uchun esa, ayni paytda tumanimiz ta'lim tizimini rivojlantirish sohasida amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning markazida o'quvchini ta'lim jarayonining subyekti — faol ishtirokchisiga aylantirish yotadi. Bunga faqat o'quv-tarbiya jarayoniga texnologik yondashuv asosida erishiladi. Demak, barcha islohotlarimiz asosida insonlarning turmush farovonligini oshirish, kelajak avlodlarimiz baxti-kamolini ko'rishdek ezgu orzu-istaklarimiz turibdi.

Joriy yilda bo'lib o'tadigan Prezident saylovi jarayonlariga tayyorgarlik ko'rilmog'da. Saylov uchastkalarining aksariyati umumta'lim maktablarida tashkil etilishi belgilangan. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan ushbu jarayonni ko'tarinki ruhda tashkil etish va saylov obyektlarini ta'mirlash uchun ajratilgan mablag'lardan unumli foydalangan holda yangi o'quv yiliga tayyorgarlik jarayonlari yuqori sur'atlarda olib borilmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, hukumatimiz ushbu sohaga juda katta e'tibor qaratyapti, biz ta'lim xodimlari bu e'tibor va ishonchni oqlash uchun astoydil harakat qilishimiz lozim.

Bahridin SOHIBOV,
Boysun tuman xalq ta'limi
bo'limi mudiri

"30 yillikka 30 ta mukofot" tanloviga

Bugungi kun — jadidlar orzusi edi

O'qituvchi oilasida tug'ilib o'sdim. Ota-onam qariyb 40 yil maktabda ta'lim-tarbiya berdi. Hozir oilamizdan 3 opa-singil o'qituvchimiz. Shu bois muallimlik kasbining zahmati va mas'uliyatini yaxshi his etaman. Esimda, daham bolalik chog'larimizda kundalik daftarimizni har kuni tekshirar, yomon baho olsak: "Qizim, nega past baho olding, shunchalik savodsizmisan?" deb koyirdi. Biz uchun oddiygina tanbeh qattiq jazo edi. O'qishda, odob-axloqda namuna ko'rsatsak, dadamning yuzi yorishib ketar, bir olam boylik topgandek suyunar, "Balli, qizim, sendan, albatta, yaxshi o'qituvchi chiqadi", derdi. Otamizning ana shu rag'bat o'zimizga bo'lgan ishonchni mustahkamlar edi.

Bugun o'quvchilarimda xuddi dadam qilgani kabi yuksak fazilatlarini kashf etishga harakat qilaman. O'qituvchi yoshlarni tarbiyalash ekan, uning o'zi har tomonlama o'rnatilgan bo'la oladigan, tarbiyali, madaniyatli, olijanob inson bo'lishi kerak. U jadal rivojlanib borayotgan zamon bilan shaxdam odimlashi, astoydil o'qib-o'rganishi lozim. Bu kasb kelajakni oldindan ko'ra bilishni taqozo qiladi.

Muallim sifatida o'z oldimga ma'lum tarbiyaviy maqsadni qo'yarkanman, bunga erishish vositalarini oldindan belgilab

olishim zarur deb o'ylayman. Agar bizda ana shu fazilatlar bo'lmasa, xatoga yo'l qo'yamiz. Muallimning esa xato qilishga haqqi yo'q. Chunki faoliyatimiz inson taqdiri bilan bog'liq. Mening xatmondan kelajak avlod, butun bir jamiyat ozor chekmasligi kerak!

Kimki o'qituvchilik kasbini tanlar ekan, o'z zimmasiga yuksak mas'uliyat oladi. O'quvchilarimga chuqur bilim berish, ularni hayotga tayyorlashim, mavjud qobiliyatini payqab, uni rivojlantirib borishim eng katta burchimdir.

Ayni kunlarda ta'lim shakli hamda o'qitish metodlari tubdan o'zgarimoqda. Yangicha maktab, yangi fanlar, dasturlar, o'quv qo'llanmalari yaratilmoqda. Bularni amalga oshirishda yangicha fikrlash o'qituvchi bo'lishim talab etiladi. 2019–2020-o'quv yilida maktabimiz kapital ta'mirdan chiqib, yangicha qiyofa kasb etdi. Bunday shinam, yorug', barcha moddiy-texnik vositalar bilan ta'minlangan xonalarda bolalarimizning tahsil olishi ko'pchilikning, ayniqsa, yurtimiz ozodligi yo'lida kurashgan jadid ota-bobolarimizning orzusi bo'lgan.

Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida shunday g'oyani ilgari suradi. Unga ko'ra, jamiyatning har bir fuqarosi, ya'ni kim bo'lishidan qat'i nazar, fozil kishi. Fozil inson o'z davlatining qonun-qoidalarini yaxshi biladi, unga amal qiladi, fikrlaydi, o'z kasbining ustasi, lozim bo'lganda Vatani uchun jon fido qiladi. Fozillar shahri aholisi bir-biriga hurmatda bo'ladi. Ota-ona va farzand, ustoz-u shogird o'rtasida sharqona nazokat, mehr va ehtirom bo'ladi.

Avvalo, bunday fikr yuritishning o'zi bobolarning ma'naviy darajasi naqa-

dar yuksak bo'lganligini ko'rsatadi. Va albatta, bunday fikr aytilish ko'p asrlik ma'naviy meroslarni o'rganish natijasida vujudga keladi. Demak, bizning barkamol avlod tarbiyalash haqidagi niyatimiz uchun ma'naviy asos bor. Shu o'rinda Mahmudxo'ja Behbudiyning fikrini keltirmoqchiman: "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo'lur".

Hademay yurtimizning barcha go'shasi — shahar-u qishloqlar, mahalla-yu ovullarida ozodlik va hurlikni tarannum etuvchi qo'shiqlar yangraydi. Yurtimizdagi barcha ta'lim muassasalari o'quvchilari esa bu kunni qo'shaloq bayram sifatida tantana qilishadi. Yangi o'quv yilini bayramlar bilan kutib olish esa har bir o'quvchining qalbiga iliqlik berishi tabiiy. Eng ulug' va eng aziz bayramni o'z gacha ruhda nishonlash o'quvchilar qalbiga muhrlanishi va uzoq yillar xotirasida saqlanib qolishiga xizmat qiladi.

Gulnora YANGIYEVA,
Buxoro shahridagi
16-maktabning ona tili va adabiyot
fani o'qituvchisi

O'tgan kunlar

Yoshim 70 dan oshdi. 40 yil o'qituvchi bo'lib ishladim. Muallimlik — mashaqqatli kasb. Ammo uning har bir zahmati ortida sharaf bor. Bugungi kun o'qituvchisiga har qancha havas qilsang arziydi. Bu gapni men, o'tgan asrning mustamlaka yillarida muallim bo'lib ishlagan inson sifatida baralla aytishim mumkin.

Paxta dalasida boy berilgan darslar...

Hozirgidek esimda, 1970-yil edi. Biz talabalar, har galgidek sentabr oyining o'rtalarida paxta yig'im-terimiga chiqib ketdik. Bu jarayonni talaba, o'qituvchi va o'quvchilarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shu yili paxta terimi uzoq davom etdi. Respublika paxta topshirish yillik rejasini kech bajardi. Shu sabab yig'im-terim ishlari dekabrning oxirigacha cho'zildi. Oy o'rtalarida qalin qor yog'di. Biz talabalarni o'shanda ham qaytarishmadi. Qorda paxta terishning iloji yo'q, ammo yangi usul o'ylab topishdi. Uzun arqon olib, arqonning ikkala uchidan ikki talaba tortib qorni tushirar, qolgan talabalar paxta terar edik. Bir necha kun shu tartibda ishladik. O'sha kunlarni eslashni ham istamasdim. Qiyinchiliklarga chidamay qochib ketgan talabalarni o'qishdan chetlatishar edi.

Sobiq ittifoq davrida mansabdor shaxslarga juda katta vakolat berilgan. Ular qo'zg'atgan odamini har xil yomon so'zlar bilan haqoratladilar. Hatto brigadir ham qo'l ostidagi ishchilarni haqoratlash "huquqi"ga ega edi. Odamlar buni oddiy holdek qabul qilardi.

O'qituvchilik faoliyatimni boshlagan yil edi. Har doimgidek paxta terimiga jalb qilindik. Ikki o'qituvchi bir brigadaga birlashtirildi. Brigadada 60 o'quvchi paxta terardi. Har kuni kechqurun hisobot berish uchun shtabga borardik. Shu kuni necha o'quvchi qatnashdi, necha kilogramm terildi, kunlik reja bajarildimi — shularning hisobini berardik. Keyin yuqoridan ruxsat berilguncha shtabda o'tirardik. Ayrim kunlari yarim tungacha qolib ketardik. Kunlarning birida o'quvchilarni paxta terimiga tushirib, brigadir, uning yordamchisi (tabelchi), brigadaga birlashtirilgan vakil va men dala chetida o'tirgandik. Bir vaqt qarasam o'tirganlarning barchasi o'rindarlardan turib tezlik bilan odamlar orasiga kirib paxta tera boshlashdi. Men hayron bo'lib qolaverdim. Shu payt mashinadan bo'yador bir odam tushib, men tomonga qarab keldi va kimligimni so'radi. Chunki undan qo'rqib qochmaganimga u ham hayratlangan edi. O'zimni tanishtirdim. Ota-onam, oilam haqida surishtirib, so'ng brigadir bilan nimalarnidir gaplashib yana mashinasiga o'tirib jo'nab ketdi. Boya men bilan o'tirib, so'ng o'zini dalaga otganlar kelib "nega direktordan qochmading", deb so'rashdi. Keyin bilsam bu odam sovxoz direktori ekan.

O'qituvchilarni majburiy mehnatga qalb qilish shu darajaga borib yetdiki, ularning o'zidan brigada tuzib, paxta terdirishdi. O'sha vaqtlari tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari bo'lib ishlardim. Menga 5 o'qituvchini birlashtirib, tumanning odam kam yashaydigan chekka qishlog'iga yuborishdi. U yerda 200 dan ortiq o'qituvchi oylab paxta terganmiz. Tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri ham biz bilan birga paxta tergan. Vaqtinchalik turarjoylar sharoitini esa hikoya qilmay qo'yaqolay. O'tgan asrda o'qituvchilar ana shunday mashaqqatlarini boshdan kechirishgan.

Ha, o'sha davrlarda paxta siyosati ta'limdan ham muhim edi. Bir kuni o'qituvchilardan biri "sizni rais bobo chaqiryapti" deb qoldi. Chiqsam, haqiqatan ham mashinada sovxoz direktori o'tirardi. U bir vaqtlari rayon ijroiya qo'mitasi raisi bo'lib ishlagan obro'li inson edi. Shunga hurmat yuzasidan "rais bobo" deb chaqirardik. Salom-alikdan keyin rais bobo "Senga xizmat bor" deb qoldi.

— Ertaga 11-sinfni paxta o'tog'iga olib chiqasiz, katta yo'l bo'yidagi dalaga, — dedi.

— Ertaga 11-sinfda davlat imtihoni bor, — dedim.

— Imtihonni paxta dalasida o'tkazasiz-da, — dedi kulib.

O'qituvchilar bilan maslahatlashib, imtihonni soat sakkizda boshlab, to'qqizda tugatdik. So'ng o'quvchilarni o'toqqa olib chiqdik. Bularning barchasi o'sha davr uchun oddiy hol edi.

Shukurlar bo'lsinki, hozirgi kunda ta'lim-tarbiya jarayonlariga bo'lgan munosabat, o'qituvchi shaxsiga nisbatan hurmat oshib bormoqda. Bular barchasi mustaqillik sharofatidir.

Fursatdan foydalanib, barcha vatandoshlarimga yurtimiz mustaqilligining 30 yilligi muborak bo'lsin, deb qolaman!

Rahmon JABBOROV,
nafaqadagi o'qituvchi

Tuyg'u

Yuragimda gullagan Vatan

Ijodkor qaysi mavzuda yozmasin, vatan mavzusi baridan-da a'lo, mas'uliyatli, e'tiborli. Vatan to'g'risida shunchaki yozib bo'lmaydi. U haqida so'z ketganda yuragimiz doimgidan boshqacharoq uradi, sasi quloqlarimizga eshitiladi, hapriqadi. Bayrog'imizni ko'rganda hayajondan bo'g'zimizga nimadir tiqiladi, madhiyamizni eshitganimizda Vatandan faxrlanish hissi tog'lardan-da yuksak, g'ururimiz esa osmondan-da baland bo'ladi!

Erk uchun kurashgan bobolar ko'zidagi yosh, istibdod bag'ridan ozodlikni yulib olgan jasorat, momolar tilidagi alyor, musofir tilidagi eng sog'inchli so'z bu — Vatan! Mingyilliklar osha kurashlardan yaralgan sabr, yo'lida kurashganlarga muborak qabr, ajdodlardan avlodlarga qolgan qadr, tashlab ketganlar ko'zida manguga tinmas ashkdir u!

Vatanda yashab, ona tuproq suvidan ichib, tuzini yeb, tabiatidan bahra olib, kengliklarida chopib, bag'ridan baxtingni topib, u haqda yozmaslik ham gunohdek tuyuladi...

Handalak hidi anqigan dalalari, anorlar yorilib pishgan bog'lari, kulchalarni qizartirgan tandiri tafti yuragimga yaqin, nonoqizog o'ynagan ariqlarining suvlari sochlarim uchida, yuzlarimda marjonga aylangan, soylarida qalqib oqayotgan ol-

mali ishi dimog'imga urgan bebaho makon, yuragim kengliklarida chopgan bolalik, tuprog'i oyog'imni ko'mgan qadrdon ko'chalar, bobolarim-u momolarimni ulg'aytirgan qadimi beshik — bu Vatan! Har bir bolasini yelkasida ko'tarib, tepkilagan oyoqlarini o'pgan o'tganlar xoki — bu Vatan! Yiroqlarda yurganlarning ko'zyoshlaridan tomib-tomib yaralgan va yana o'zlarining yuraklariga qayta oqqan azim daryo — bu Vatan! Insonning ko'zlarini to'q, qo'llarini botir, so'zlarini o'tkir, yuragini o'tli va jasoratli, qadamini shaxdam, niyatini ulug' qilgan qutlug' maskandir u!

Otamday qadrdonim, onamday mehribonim, yuragim ichidagi jonim — O'zbekistonim!

Menga dunyo bo'ljalaridan so'z ochmang. Negaki, bedanalari sayragan bezazorlari, qizg'al-

doqlar qoplagan qir-adirlari, joningga huzur muzdek buloqlari, do'lanalar pishgan tog'lari, yantoqni gullatadigan qumliklari, tayoq suqsang, daraxt bo'ladigan saxiy tuprog'i, tanasi quloqlarga sig'magan mingyillik chinorlari, to'rt fasl ham mehmon bo'ladigan va bahorda oppoq o'rikzorlari, yozda salqin shabadali yashil boyliklari, kuzda oltinday sarg'aygan bog'lari-yu qip-qizil jiydazorlari, qishda kumushdek tovlangan dala-tuzlari bor mo'jizaviy maskan — bu Vatan! Bir yoni bog', bir yoni tog', tog'ining boshida qish, etagida bahor yastangan, mevalari g'arq pishgan, qovunlari tilni yorgan, qizaloqlar etagida, jajji bolajonlar qo'yniga dovuchcha solgan, quyoshida qo'zichoqlarining terisi tovlangan, dehqonning tanasi toblangan, boyliklarga kon, yaxshilarga makon — bu Vatan!

O'zbekistonim! Erka erishgan kuning, o'ttiz yillik to'ying muborak! Ajdodlarning armonlari ushalgani, mustaqillikdek buyuk ne'mat berilgani rost bo'lsin! Hurliging abadiyatga daxldor, senda va sen bilan o'tayotgan tinch hamda osoyishta har bir kunimizga ming bora shukurlar bo'lsin!

Munavvara NURMANOVA,
Tuproqqal'a tumanidagi
6-maktabning ona tili va
adabiyot fani o'qituvchisi

Kasbim yana qadr topajak!

1991-yili ToshDUni kimyo yo'nalishi bo'yicha tamomlab, Buloqboshi tumanidagi markazdan ancha olisda joylashgan Do'lan qishlog'idagi 9-maktabda kimyo fanidan dars bera boshladim. O'qituvchilikni boshlaganimga ham o'ttiz yil bo'libdi. Mustaqillik bilan tengdosh faoliyatim davomida qanchadan-qanch o'quvchilar maktabni bitirib, hayotda o'z o'mini topishdi.

Maktabimizda 500 nafardan ziyod o'quvchi saboq oladi. O'quv binosi eski, ancha ta'mirtalab, sinf xonalari, jihozlar yaroqsiz holda bo'lgani tufayli 2005-2006-yillarda maktab binosi atrofidagi eski binolar buzilib, yangi, zamonaviy, muhtasham, ikki qavatli maktab qurildi. Eski bino ta'mirlanib, foydalanishga qulay holga keltirildi. Maktab yangi stol-stul, doska, laboratoriya jihozlari, kompyuter texnologiyalari bilan qayta jihozlandi. Yangi sport zali qurildi.

Ayni kunlarda Yurtboshimiz tomonidan o'qituvchi shaxsining ulug'lanishi, e'zozlanishi qalbmizni his-hayajonga to'ldiradi. Shu on 2008-yilda maktabda pilla yetishtirish uchun ipak qurti bo'qilgani, o'qituvchilar navbatma-navbat tut bargi kesib, qurt boqishga jalb etilgani, g'oz chopig'i, o'tog'i, yagana, qo'yingki, barcha qishloq xo'jaligi yumushlari, dala ishlariga jalb etilganimiz ko'z oldimga keladi. O'sha paytlar maktabda darslar sifatli tashkil etilishiga ham e'tibor kuchaytirilgan, biroq o'qituvchining vazifasiga kirmaydigan qo'shimcha topshiriqlar ko'pligiga biron bo'yin tovlamas, o'qituvchi salkam mardikorga aylangan edi.

Har qanday mehnat, topshiriq ustozlikka qalban bog'langan, bolalarga saboq berish ishidan zavq oladigan va bu kasbdan faxrlangan insonni chalg'it olmaydi. Bu haqiqatni o'zim misolimda ayta olaman. Mustaqillik bilan tengdosh faoliyatim davomida saboq bergan o'quvchilarim bugun

shifokor, o'qituvchi, harbiy, sport ustasi va boshqa elga foydasi tegadigan kasblarni egallashdi. Boks bo'yicha ulkan yutuqlarga erishgan, o'zbekni dunyoga tanitishga hissa qo'shgan Hasanboy Do'smatov ham bizning maktab o'quvchisi edi. Bundan faxrlanmay bo'ladimi?!

2017-yili boshlang'ich sinfga dars berish maqsadida qayta tayyorlovdan o'tdim. Sinfni "yaxshi sinf"ga aylantirish, o'quvchilarni bir oila kabi birlashtirish, bir-biriga ko'makdosha, sirdosh, ahil qilib tarbiyalash o'qituvchining bilim va mahorati, tajribasiga bog'liq. Tarbiyaviy soatlarda insonga xos fazilatlar, bilim, ezgu xislatlar inson ko'rki ekanligi haqidagi pandlarni hikoya, ertaklar asosida tushuntiraman. Partalar bo'ylab yurib, she'rلامي yoddan, ifodali o'qiyman. Meni kuzatayotgan o'quvchilarning nigohlarida quvonch, hayrat ifodasini ko'raman. Natijada sinfi maktab reytingida oldingi o'rinlarda bo'lishi uchun intiladigan, faol o'quvchilar safi ko'payadi. O'qituvchi o'quvchiga dildosh, do'st, hamkor bo'lib, unga kerakli bilimni bera olsa, ta'lim-tarbiya jabhasida muammolar bo'lmaydi. Aksincha, e'tibor bilan berilgan bilim yutuqlari sari yo'l ochadi. Nafaqa yoshida bo'lsam-da, hamon maktab bag'ridaman, o'quvchilar ta'lim-tarbiyasi bilan mashg'ulman.

Zamiraxon G'AYNAZAROVA,
Buloqboshi tumanidagi
9-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Qadr topgan yurtida qaddingni tik tut!

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida "O'zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi" deyilgan.

Mamlakatimizda inson huquqlarini ta'minlash Mehnat kodeksida hamda "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida", "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida", "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida", "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida", "Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida", "Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat ijtimoiy sug'urtasi to'g'risida", "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunlarda ham o'z ifodasini topgan.

Shuningdek, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 28-dekabr-dagi "O'zbekiston faxriylarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash "Nuroni" jamg'ar-masi faoliyatini yanada takomillash-tirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni nuroniyalarimizni rag'batlan-tirish, ularning hayot darajasini yanada yaxshilash borasidagi tizimli ishlar-ni muntazim davomi bo'ldi. Farmon-da keksa avlod kishilarini e'zozlash, ularni yoshlarni ezigulik va oljanoblik singari xalqimizning ko'p asrlik an'analarini hurmat qilish ruhida tarbi-yalashga yo'naltirilgan ijtimoiy faoli-yatga jalb etish vazifalari belgilangan. Ko'pni ko'rgan yoshi ulug'larimizning hayot yo'li, pand-u nasihatlari yosh av-lod vakillarining pok qalbli, vijdonli, Vataniga va xalqiga sadoqatli hamda yuksak ma'naviyatli bo'lib kamolga ye-tishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, Bandlik va mehnat mu-nosabatlari vazirining buyrug'i bilan alohida asoslarga ko'ra mehnat shartno-masi bekor qilinganda ishdan bo'shatil-gan xodimlarga muddatidan oldin pensiya tayinlash tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaga o'zgartirishlar kiritildi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Bugungi ozod va erkin hayot uchun,

farzandlarimizning baxti va kamoli uchun biz keksalarning oldida chek-siz qarzdormiz. Bu aziz insonlarni as-rab-avaylash, ularning sog'-salomat va mazmunli umr kechirishlari uchun barcha sharoitlarni yaratib berish — hammanizning muqaddas insoniy bur-chimizdir".

Jamiyat taraqqiyotini yuksaltirish yo'lida Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining pensiya yoshidagi profes-sor-o'qituvchilari ham ilmiy salohiyat-ni oshirish, yoshlarni ilm-fanga keng jalb qilish, qo'llab-quvvatlash va ilmiy maktablarni rivojlantirish maqsadida bir qancha ishlarni amalga oshirib kel-moqda. Jumladan, Farmon Mamatov qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash-tirish sohasida yetuk olimlardan hisob-lanadi. Uning muallifligida 3 darslik, 4 o'quv qo'llanma, 11 monografiya, 2 risola yaratilgan. Farmon Mamatov 114 ta patent muallifi, 18 ta maqolasi "Scopus" va "Web of Science" jurnal-larida chop qilingan. 12 ta patent, jum-ladan, 7 ta Rossiya Federatsiyasining patentini olgan. Uning rahbarligida 4 nafar fan doktori (DSc) va 5 nafar fal-safa doktori (PhD) tayyorlangan. Dom-la rahbarligida tayyorlangan "Qishloq xo'jaligi mashinalari" nomli o'quv qo'llanma 2016-yilda "Yilning eng yax-shi darsligi va o'quv adabiyoti muallifi" respublika tanlovining g'olibi bo'lgan. Oliy ta'lim muassasalarida "Qishloq xo'jaligi mashinalari" nomli kitobi aso-siy darslik sifatida qo'llanib kelinmo-qda. "Scientific and technical bases of technical means for smooth plugging" nomli monografiyasi nemis, fransuz, is-pan, polyak, rus, ingliz, portugal, dani-ya tillarida Germaniyada chop qilingan.

U "Best IP-2019" eng yaxshi intel-lectual mulk obyektlari uchun repu-blika tanlovining "Faxriy ixtirochi" nominatsiyasi sovrindori, "Poliz ekin-lari ekish uchun tuproqni tayyorlaydigan



kombinatsiyalashgan agregat" nomli ishlanmasi uchun Rossiya Federatsi-yasi qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan 2019-yilda o'tkazilgan "Золотая олень" agrosanoat ko'rgazmasining oltin medali bilan taqdirlangan.

Institutning yana bir sharafi bo'lgan pensioner, faxriy unvonga ega Oktabr Rahimov ham 178 ta ilmiy va uslubiy ishlar, 9 ta ixtiro, O'zRFA "Fan" va "Voriz" nashriyotlarida chop etilgan 6 ta monografiya, oliy ta'lim talabalari uchun 5 ta darslik, 10 dan ortiq o'quv qo'llanmalarini yaratgan fan fidoyisi hisoblanadi. U kasb-hunar kollejlari uchun 5 ta o'quv qo'llanma muallifi. 2020-yilda Rossiya tabiiy fanlar aka-demiyasi professori ilmiy unvoni ham-da akademianing "Isaac Nyuton" med-ali bilan taqdirlangan. "Taniqli olimlar" ensiklopediyasiga kiritilgan shaxs. Ya-qinda Rossiya tabiiy fanlar akademi-yasi Prezidiumining qaroriga ko'ra V.I. Vernadskiy nomli "Oltin medal" bilan taqdirlandi.

Hozirgi kunda Jahon bankinging te-gishli fondi doirasida "O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni moder-nizatsiya qilish" loyihasi tanlovida umumiy qiymati 90000 AQSh dollari bo'lgan loyihada rahbar sifatida faoliyat olib bormoqda.

"Po'latlarga kimyoviy-termik ishlov berish usuli" bo'yicha 1 ta mualliflik gu-vohnomasi, 20 dan ortiq o'quv-uslubiy qo'llanma va ko'rsatmalar, 50 dan ortiq ilmiy maqola va 60 dan ortiq tezislar yaratgan yana bir fan fidoyisi Xoliqul Eshqobilovning nomini tilga olmasak bo'lmaydi. Bu zahmatkash inson ham bakalavr ta'lim yo'nalishlari va mag-istratura mutaxassisligi uchun 8 ta fan o'quv dasturlarini tuzishda ishtirok et-gan. Davlat tilida adabiyotlar yaratish bo'yicha ishlar olib bormoqda, muta-xassislikka oid fanlar bo'yicha hamkor-likda 2 ta o'quv qo'llanma yaratgan.

Yana bir faxriy olimimiz Shuhrot Murodov Rossiya va AQShda bo'lib o'tgan (2019-yil 29-31-may) "BOOK-EXPO AMERICA" xalqaro ko'rgazma-sida faol ishtirok etgan. Uning 4 ta

o'quv adabiyoti va 1 ta monografiyasi Rossiya tabiatshunoslik akademiyasi tomonidan sertifikat va oltin medal bilan mukofotlandi.

Albatta, institut pensioner profes-sor-o'qituvchilarining ijtimoiy-iqti-sodiy sohalar uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilm-fanni rivojlan-tirishda olib borgan samarali faoliyati davlatimiz tomonidan munosib taqdir-langan.

Yurtimizning barcha joylarida bayram munosabati bilan aholi vakil-lari, ayniqsa, yoshlar bilan o'tkazilgan uchrashuvlarda, targ'ibot tadbirlarida yuqorida tilga olingan fan fidoyilari — keksalarimiz istiqlolimizning o'tgan shonli 30 yilini ular tushnadigan oddiy tilda ifodalab berganini ham ta'kidlash joiz. "Kelajak bizniki, marra bizniki", "O'zbekiston: 30 yilda erishilgan nati-jalar va istiqbollari", "Istiqlolni iqtid-dorli yoshlari" kabi mavzularda yoshlar davrasida o'tkaziladigan targ'ibot tad-birlarida davlatimiz tomonidan yosh-larga qaratilayotgan davlat siyosati da-rajasi g'amxo'rlikning mohiyatini, ta'lim, ilm-fan, sog'liqni saqlash va sportga qaratilayotgan e'tibor hamda uning samaralarini aniq raqam, dalil-lar asosida tushuntirishni o'z oldilariga qo'ygan asosiy maqsad deb bilishdi. Shu o'rinda alohida ta'kidlash lozim-ki, oldimizda turgan asosiy vazifa eng katta boyligimiz bo'lmish jamiya-timizda hukm surayotgan millatlar va fuqarolar o'rtasidagi do'stlik va ahillik, mehr-oqibat muhitini mustahkamlash-dan iborat.

Shubhasiz, tinchlikni ko'z qar-achig'iday asrash, ogoh va hushyor bo'lib yashash, uni odamlarga, ayniqsa, yoshlarga tushuntirish har birimizning burchimizga aylanishi kerak. Shundagi-na biz mustaqillikni mustahkamlashga, ilm-fanda ulkan kashfiyotlar yaratish-ga qodir bo'lamiz. Ana shunda kelajak avlodga ozod va obod Vatan qoldirish ishiga hissa qo'shgan bo'lamiz.



TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI



*Rektorati,
professor-o'qituvchilari va talabalari jamoasi
aziz yurtdoshlarimizni, mamlakatimiz ta'lim va
fan tizimida mehnat qilayotgan barcha ustoz va
murabbiylarni ENG ULUG',
ENG AZIZ AYYOM – JONAJON
O'ZBEKISTONIMIZ DAVLAT
MUSTAQILLIGINING 30 YILLIGI
munosabati bilan muborakbod etadi!*

*Vatanimiz ravnaqi, farovon turmushimizni
yanada yuksaltirish, ilm-fanni yangi-yangi
kashfiyotlar bilan boyitish, yosh avlodga
ta'lim-tarbiya berish yo'lidagi olijanob faoli-
yatingizda muvaffaqiyatlar yor bo'lsin!*

"Qirq yillik qadrdonim"



Bundan 90 yil muqaddam, ya'ni 1931-yil 4-iyul kuni "Ma'rifat" gazetasining birinchi soni "Madaniy inqilob" nomi bilan chop etildi. 1938-yildan "O'qituvchilar gazetasi", 1991-yildan yildan hozirgi nomida chiqib kelyapti. Gazeta nomiga yarasha xalqimiz ma'rifatini yuksaltirishga, yurtimizda ta'lim va tarbiya sohasini rivojlantirishga munosib hissa qo'shmoqda. Ishonchimiz komil, "Ma'rifat" bundan keyin ham o'zining sharafli vazifasini halol bajaraveradi.

Yarim asrdan buyon boshqa gazetalar qatori "Ma'rifat" ("O'qituvchilar gazetasi")ni o'qib, kuzatib kelaman. Qirq yilcha ilgari gazetaga xat orqali she'rimni jo'natdim. Taniqli shoir Ma'ruf Jalil "Tahririyatga kelgan she'rlar sharhi"-da she'rimdan bir to'rtlikni keltirib, iliq fikrlar bildirgani o'zimga bo'lgan ishonchni mustahkamladi. Shu-shu gazetaga mehriim tovlandi.

1986-yilda gazeta bosh muharriri o'rinbosari, so'z san'atkori, shoir va tarjimon Sulton Akbariyga "Muallimga tilagim" she'rimni olib borishga jur'at qildim. Ustoz she'rimni diqqat bilan o'qib chiqib, ko'z oldimda bitta so'zni o'zgartirdi va imkon bo'lsa foydalana-miz dedi. Ko'p o'tmay gazetada she'rim bosilib chiqqanda, boshim osmonga yeti-desam ishonaverim.

Zamon g'ildiragi bir zum to'xtamaydi, avlodlar almashaveradi. Gazetaga Sa'dulla Hakim bosh muharrir etib tasdiqlandi. Men Sa'dulla aka ishdan bo'shroq bo'ladigan paytda chiqardim va ikkimiz miriqib shaxmat o'ynab, qizg'in suhbatga kirishardik. Bir necha yildan keyin gazetaga Halim Sayid bosh muharrir etib tayinlandi. Aynan Halim meni gazetaga chambarchas bog'lash yo'lini topdi. Chunki u stol tennisi bilan shug'ullanib yurgani uchun alohida bir xonaga tennis stolini qo'ydi. Lekin unga raqib yo'q ekan. Oldin onda-sonda, keyin muntazam ravishda "Ma'rifat" gazetasiga borib, Halim bilan tennis o'ynadim. Avvaliga o'yinimizni bir-ikki xodim tomosha qilgan bo'lsa, vaqt o'tgan sayin tomoshabinlarimiz soni oshib bordi. Ilgarilar tennis xonasi bo'sh bo'lardi. Keyin gazeta xodimlari tushlik payti tennis o'ynashni odat qilishdi. Voqealardan o'zib aytmog'chiman, stol tennisi tahririyatda

ommalashdi. Hatto tahririyat xodimlari o'rtasida stol tennis bo'yicha musobaqalar tashkil etila boshladi va ular orasidan keyinchalik ustozidan o'tgan shogirdlar yetishib chiqdi.

Halim Sayid jurnalistlar hayotida sportning beqiyos ahamiyatini tushungani uchun 2003-yili Matbuot va ommaviy axborot vositalari kuni munosabati bilan G'afur G'ulom bog'ida bir necha sport turi bo'yicha "Ma'rifat" gazetasi sovrini uchun musobaqalar uyushtirdi. Men shaxmat musobaqasini tanladim. Sababi, shaxmat musobaqasida taniqli adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov, ustozimiz, filologiya fanlari nomzodi Rahmatilla Inog'omov, sevimli shoirimiz Nosir Muhammad va boshqa ijodkorlar qatnashayotgandi. O'sha musobaqadan menga bir surat xotira bo'lib qolgan baxtim. Endilikda bunday musobaqani bir tog' tilla berib ham tashkil etib bo'lmaydi. Men nomlarini hurmat bilan xizk etgan insonlar allaqachon bu dunyoni tark etishgan.

2003-yil 20-sentabr kuni "Ma'rifat" gazetasida birinchi katta maqolam chiqdi. Bu maqola "Ishq oldida hamma teng" deya nomlangan bo'lib, mashhur avar shoiri Rasul Hamzatov tavalludining 80 yillik to'yiga bag'ishlangan edi.

Ellik yoshga to'lishimga sanoqli kunlar qolganda Halim gazetasining 2003-yil 24-dekabr sonida turkum she'rlarimni berdi. Hanuzgacha o'sha she'rlarimdagi satrlarni dilda takrorlab yuraman:

*Agarda botqoqdan qamish yulsangiz,
Dunyoga dardini kuylar bo'lib nay.
Saksuvulni cho'ldan judo qilsangiz,
Chidolmay loshini olovga otgay...*

Yillar shitob bilan o'tib borardi. Gazetasining 2008-yil 18-oktabr sonida

Yillar shitob bilan o'tib borardi. Gazetasining 2008-yil 18-oktabr sonida mening tarjimamda chiqqan Rasul Hamzatovning "Mening Dog'istonim" kitobidagi "Til" bo'limi to'liq berildi. O'sha davrda tahririyat yaxshi an'anani yo'lga qo'ygandi. Gazetada har uch oyda chiqqan maqolalar sarhisob qilinib, eng yaxshi maqola mualliflari tahririyatning pullik mukofotlari va faxriy yorlig'i bilan taqdirlanardi. Menga ham tarjimam uchun shunday mukofot topshirildi. Albatta, men mukofotni ziyolilar gazetasi bo'lgan "Ma'rifat" gazetasida tahririyatining mashhur shoir Rasul Hamzatovga bo'lgan hurmat-ehtiromi sifatida qabul qildim.



mening tarjimamda chiqqan Rasul Hamzatovning "Mening Dog'istonim" kitobidagi "Til" bo'limi to'liq berildi. O'sha davrda tahririyat yaxshi an'anani yo'lga qo'ygandi. Gazetada har uch oyda chiqqan maqolalar sarhisob qilinib, eng yaxshi maqola mualliflari tahririyatning pullik mukofotlari va faxriy yorlig'i bilan taqdirlanardi. Menga ham tarjimam uchun shunday mukofot topshirildi. Albatta, men mukofotni ziyolilar gazetasi bo'lgan "Ma'rifat" gazetasida tahririyatining mashhur shoir Rasul Hamzatovga bo'lgan hurmat-ehtiromi sifatida qabul qildim.

Hayot qonuni shunday: yillar o'taveradi, avlodlar o'zgaraveradi. Gazetaga Abdusamad Rahimov bosh muharrir bo'ldi. U uzoq yillardan beri bosh muharrirning birinchi o'rinbosari lavozimida ishlab kelayotgan bo'lsa ham aynan rahbar bo'lganidan keyin naqardir bag'rikeng inson ekanligini bilib oldik. Tennis o'yinlarimiz tushlik paytidan ancha o'tib ketsa ham, ish tugashidan ancha oldin tennis o'yinini boshlab yuborsak ham parvosiga keltirmasdi. Holbuki, bosh muharrir va tennis xonalari yonma-yon edi. U bilardiki, xodimlar tennis o'ynash uchun yo ishgga vaqtli kelib, yo ishdan qolgan o'zlariga yuklatilgan vazifani bajarishardi. Ba'zan Abdusamad tennis xonasiga kirib kelardi, ikkimiz bir necha partiya o'ynardik. Xodimlar ishini davom ettirish kerakligini tushunib, xonalariga chiqib ketishardi.

Bu davrda ham gazetada she'r, tarjima va maqolalarim tez-tez e'lon qilindi. Ulardan "Bizning yo'l — ilm-ma'rifat yo'li"(2010-yil 31-mart) va shaxmat bo'yicha 17-jahon chempioni Rustam Qosimjonovga bag'ishlangan "O'zbek mo'jizasi"(2013-yil 14-iyul) maqolalarimni alohida e'lon qilishni istayman. Shunday keng qamrovli maqolalarimning aynan "Ma'rifat"da bosilgani gazetaga bo'lgan mehriimni yanada oshirib yubor-gani bor gap.

Vaqt to'xtamaydi, o'zgarishlar davom etaveradi. Gazetaga Husan Nishonov bosh muharrir etib tayin-

*Yarmi osiyolik mashhur qardoshim,
Yarmi yevropalik dongdor birodar...*

Hozirgi kunda o'zbek shaxmatida yosh xalqaro grossmeysterlar ko'p. Nega

deysizmi? Bu yoshlar hali sport ustasi bo'lmagan davrida ulardagi iste'dodni payqagan Husan Nishonov har biri haqida keng qamrovli maqolalar yozdi va bu maqolalar "Ma'rifat"da bosildi. Bilamizki, bunday maqolalar yosh iste'dodlarga qanot bag'ishlaydi. Aslida, jurnalistning vazifasi yosh iste'dodlarni topish, ularni qo'llab-quvvatlash va katta g'alabalar sari yetaklashdir. Husan shunday sharafli vazifani bajarishda davom etayotganidan bag'oyat xursandman.

Gap shaxmat haqida ketganda, 2018-yili "O'qituvchi va murabbiylar kuni" munosabati bilan ijodkorlar o'rtasida "Ma'rifat" gazetasi sovrini uchun shaxmat musobaqasi o'tkazilganini eslamasam bo'lmas. Bu musobaqa ham murosasiz kurashlar ostida o'tdi va ijodkorlarda katta taassurot qoldirdi. Musobaqa haqida shu so'zlarni yozish bilan kifoyalanaman, negaki maqolamning sal avvalida 2003-yildagi musobaqa to'g'risida to'lib-toshib yozdim.

Shuncha yozganlarimni o'qib, Husan gazetasining bosh vazifasi — gazetada ta'lim-tarbiya sohasiga e'tibor qarat-mabdi degan xayolga bormang. Aynan Husan Nishonov bosh muharrirligi davrida ta'lim-tarbiya mavzusidagi dolzarb maqolalar gazetada ko'proq berildi. Ularni bosh muharrir buyurt-masiga ko'ra taniqli pedagog olimlarimiz va adiblarimiz yozishdi. Bunday buyurtmadan men ham benasib qol-madim va gazeta uchun "Yaxshi darslik — yarim muvaffaqiyat"(2020-yil 21-oktabr) maqolasini yozib berdim. Sarlavhadan ko'rinib turibdiki, maqola yaxshi darslikning ahamiyati to'g'risida. Ma'lumki, o'quv dargohlarimizda bundan 50-60 yil ilgari Moskvada tasdiqlangan darsliklar(ayniqsa, tabiiy fanlarda) bilan ta'lim berilyapti. To'g'ri, darsliklarning u joyi, bu joyi o'zgartirilgan, mavzular oxiriga test savollari qo'yilgan, o'zak esa o'sha-o'sha. Holbuki, O'zbekistonimizning bebaho bilim xazinasini ifodasini topgan va hozirgi davr talabalariga javob beradigan darsliklarga allaqachon ega bo'lishimiz kerak edi. Maqolada shunday dolzarb masalalar qalamga olingan.

Qadrl "Ma'rifat" gazetamiz mubora-k 90 yoshga to'ldi. Shuni yana bir kar-ra mamnuniyat bilan ta'kidlashni istay-man, gazeta keyingi qirq yilda qadrdon hamrohimga aylandi. Men sevimli gazeta-m yuz bilan yuzlashishini, asrlar o'sha shunday sevimli gazeta bo'lib qolishini tilayman.

Hozirgina miyamga yangi maqola g'oyasi keldi. O'ylashimcha, bu maqola eng yaxshi maqolam bo'ladi. Albatta, bu maqolani qadrl "Ma'rifat" gazetasiga olib boraman. Shukurki, shunday o'ylay-digan pedagog olimlarimiz, adiblarimiz va gazetasining jurnay mualliflari ko'pchilikni tashkil etadi. Qirq yillik qadrdonim bo'lgan gazetasining shunday fidoyilari ko'p ekan, "Ma'rifat" olg'a, dadil qadamlar tashlayveradi!

Asror MO'MIN,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist



Bobom o'qituvchi bo'lgan, o'sha tug'ilib o'sgan chekka qishlog'imda o'z davrida hashar yo'li bilan maktab bino qilib, xalqqa ta'lim bergan. Shu sababdanmi tunlardan tonglar qadar ulanib ketadigan oilaviy suhbatlarimizning mavzusi asosan ta'lim-tarbiya, ilm-ma'rifat, bundan tashqari, uzluksiz kelib turadigan gazeta-jurnallar, uyimizdagi besh mingdan ortiq kitoblarning mazmun-mohiyati haqida ketardi. Men bu suhbatlarni tinglab, ba'zan qo'shilib, o'qituvchi-olima bo'lishdek katta orzular qilardim. Kattalar buning uchun tinmay o'qib ilmi bo'lishim kerakligini uqtirishardi. Tinimsiz savollarim bilan bobomdan ajralmasdim. Oramizda ba'zan tortishuvlar, ba'zan sokin suhbatlar bo'lib turardi. Esimni tanibmanki, "Ma'rifat" bobomning sevimli gazetasi edi. Nafaqaga chiqqanida ham ta'lim mavzusi, yangiliklari doim unga qiziq bo'lgan. Shuning uchun biz bobo-nabira undagi maqolalarni muhokama qilardik. Bahslashib qolsak, ko'pincha yutqazar edim. Baribir ichimda o'zimni haq deb o'ylardim. Bobom, mana, "Ma'rifat"da jurnalistlar bunaqa yozishgan, unaqa yozishgan deb ba'zi gaplarini isbotlardi. Bola xayollarim bilan o'ylardim, katta bo'lsam hamma narsani biladigan olim-jurnalist bo'laman, "Ma'rifat"da ishlab o'zim maqolalar yozaman, keyin bobom menga e'tiroz bildirolmaydi deb. Yillar o'tgani sari bu xayollar maqsadga aylanib bordi.

"Ma'rifat" dan qolgan kundaligim

A'lo baholar bilan litseyini tugatdim. Ijodga muhabbatim o'zgacha edi. Shu sababli jurnalistika o'ziga tortdi va shu soha bo'yicha universitetga o'qishga kirdim. Xursandchilgimning cheki yo'q edi. Axir endi jurnalist bo'lib, katta quzonga qo'shilishim mumkin edi. Ammo o'qishni tugatib, bilimlarimni oshirib, munosib bo'lganimdan so'ng "Ma'rifat"ga qadam qo'yishga sabrim yetmasdi. Ichimda intiqayotgan kuch bor edi. Birinchi kursligimdan buning uchun tayyorlana boshladim. Oz bo'lsa-da tahriri o'rganish, imloviy va kompyuter savodxonligimni shakllantirish uchun nashriyotga ishgga kirdim. Uchinchi kursligimda "Ma'rifat" yana kasbining fidoyisi bo'laman degan ta-labalarga quchog'ini ochib, "Mahorat maktabi" ish boshladi. Bu men uchun ajoyib imkoniyat ekanligini angladim. Boshidanoq eng yaxshi "Mahorat maktabi"ning eng yaxshi bitiruvchilari ish-ga qabul qilinishi aytilgan edi. Mahorat darslarining dastlabki kunlaridanoq gazeta haqidagi taassurotlarimni isboti-ni topib bordi. Kundalik tutishga qaror qildim, har bir darsdan olgan taassurot-larimni, keyinroq bu dargohda o'rgan-ganlarim borki barini unga qoralab qo'yadigan bo'ldim.

"Ma'rifat"ning jonkuyar jurnalistlari biz talabalar kasbinizning chinakam egalari bo'lishimiz uchun harakat qilishdi. Bunda safimizdagi talabalarning nafaqat kasbiy saviyasi, kasbinizning mas'uliyati, maqsadi haqidagi fikrlari yorqinlashib bordi. Mahorat darslari yakunlanganidan keyin va daga muvofiq to'rt nafar talaba gazeta jamoasi safiga ishgga qabul qilindik.

Bu kun butun hayotimga yo'lboshchi bo'lgan kun desam yangilishmayman. Bu dargoh gazetasining o'zi qadar ma'ni-li bir oilaga o'xshaydi. Hammasidan ham tahririyatdagi o'ziga xos ichki muhit "Ma'rifat"ning qalbimizdan joy olishiga sabab bo'lgan. U yerda hech kim shunchaki jurnalist emas, har bir xodimning o'z ibrati bor. Yoshlarni



qo'llab-quvvatlashga yaxshi e'tibor berilgani tahsinga loyiq. Ishga qabul qilingan to'rt nafar talabaga bir hafta davomida barcha bo'limlarni o'rganib, o'zi istagan bo'limda faoliyat olib borishi mumkinligi aytildi. Qaysi bo'limga qadam qo'yamaylik, hamkasblarimiz mehr bilan, ehtiyotkorlik bilan topshiriq-larimizga astoydil yordamlashardi. O'z joyida vazminlik bilan berilgan chiroyli tanbehar-u, maqtovlar butun hayotimiz-ga asqotdi. Men dastlab "Umumiyy o'rta va maktabgacha ta'lim yangiliklari" bo'limida ish boshladim. Bu yerda hamkasblar bilan, mualliflar bilan mu-mola, ishdan o'zini tutish, materiallar uchun ma'lumot to'plash, ularni qog'oz-ga tushirish tartibi kabilar o'rgatilgan. Keyinroq chet tilimni mustahkamlash uchun xalqaro bo'limda faoliyatimni davom ettirdim. Sekinlik bilan ishgga jid-diy yondashuv, har jihatdan mas'uliyat hissi shakllanib bordi. Har bir material-ga kiritgan ma'lumotimiz uchun isbot so'ralardi, shuning uchun isbotlab berol-maydigan ma'lumotlarni kiritmasdik. Bu bora-bora ish uslubiga aylandi. Bir kuni ish davomida bir tarjima material-ni tayyorlashga qiynalдим. Ma'lumot-

larni to'plab tarjima qilaman-u, mahi-yatiga yetib borolmadim. Shunda bo'lim rahbarimga kimdan qayerga borib yordam so'rashim mumkinligini aytganimda "Faqat va faqat o'zingiz o'zingizga yordamchi" dedi. Shunda hali yetarlicha izlanmaganimni angladim, oxiri maqsadimga yetdim. O'zim qadar o'zimdanda o'zimga suya-na olmasligimni, o'zimday hech kim menga yordam berolmasligini bildim. O'zimga ishonchim, ruhim shu qadar yuksaldiki, vaqtim ichidan vaqt topib o'z ustimda ko'proq ishlay boshladim. Endi bu mening butun hayot shiorimga aylanib qoldi. Biror maqsadim bormi, orzu-xayollarimmi, yo'qotishlarimmi, barchasiga o'zim sababchiman, degan ovoz yuragimdan yangraydi.

Gavhar MURODOVA



NAVOIY KON-METALLURGIYA KOMBINATI JAMOASI



Vatanimizda istiqomat qilayotgan barcha millat va elat vakillari, O'zbekistonimizning iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish yo'lida fidokorona mehnat qilayotgan fidoyi insonlarni, yurt mehrini qalbiga joylagan jo'mard va tanti xalqimiz asl farzandlarini mamlakatimiz Mustaqilligining 30 yilligi bilan samimiy tabriklaymiz!

Barchangizga tinchlik-xotirjamlik, oilaviy baxt, mustahkam sog'liq, uzoq umr, shaxsiy hayotingizda omad va zafarlar tilaymiz. Xonadoningizni xayr-u baraka hech qachon tark etmasin!





Vatanim, sen bilan g'ururlanaman!

Yer yuzida bevatan odam yo'qdir. Vatsansiz bo'lishdan o'zi asrasin. Vatani bor bo'laturib jahon bo'ylab bosh ko'tarib yurolmayotganlar ozmunchami? Har qanday yurtning yoshlari, kelajak avlodi o'z yurtining o'tmishda va hozirgi davrda olib borayotgan hayot tarzi uchun u yoki bu ko'rinishda o'zlarini mas'uldek sezishadi. Inson go'zallikning farqiga borgan kundan boshlab odamiylikka, yaxshi-yomonning farqiga borgan kundan boshlab, donolikka qadam qo'yadi. Shu nuqtayi nazardan vatanga bo'lgan muhabbat, sadoqat, u bilan g'ururlanish ma'lum darajada inson qalbining eng nozik yerlarida asralgan va o'ta kuchli va asosli e'tiqodga suyangan bo'lishi shartdir.

Vatanga bo'lgan muhabbat vatandoshlarim qoniga singib ketgan. U juda ham tinchliksevar. Tinchliksevar, chunki bolajondir. Bolajon, chunki o'zining kelajagiga, vatanning buyuk kelajagiga ishonadi. Chunki u o'z yon atrofidagi qo'shni xalqlar bilan yaxshi qo'shnihilik munosabatlarni ushlab turish uchun barcha imkoniyati bor yoki yo'q choralarini ko'radi; onalar va bolalarga g'amxo'r; Yoshlarining kelajagi uchun misli ko'ril-magan darajada qayg'uradi: zamonaviy uy-joylar, yo'llar, ko'priklar, kasalxonalar, maktab, litsey, kollej, institut, universitetlar quradi.

Jahonning biror-bir mamlakatida millatlar bizning mamlakatdagi xalq ittifoqi, bir yoqadan bosh chiqarib murosa bilan yashamasa kerak, bunga ayniqsa ko'p millatli, kundan-kunga chiroyiga chiroy qo'shilib borayotgan poytaxtimiz — Toshkentni azim misoldir. Barcha millatlar bizda bir-biri bilan ittifoq, bir-biriga mehribon, chunki ular bir-birining yutug'iga quvonishadi; qayg'u kunlari birgalikda qayg'urishadi; kamchiligini kechirishadi; birgalikda mehnat qilishadi, o'ynab kulishadi va hordiq chiqarishadi.

Vatanga muhabbat bo'lishi uchun avallambor kishida vatan tuyg'usi shakllan-

gan bo'lishi kerak. Vatan tuyg'usi kishida o'z xalqi tarixini o'rganish jarayonida, ota-onasi, yaqinlari, muallimlari bergan va berayotgan Ta'lim-tarbiya jarayonida, mintazam ravishda o'qib borayotgan kitoblar va tevarak atrofdan bosma, ko'rgazmali yoki og'zaki axborot olinishi jarayonida shakllanib boradi.

Ona Vatanim — O'zbekistonim. U minglab yillik tarixiga ega.

Amir Temur bobomiz davrida u o'z davri uchun o'ktamlikka tengi yo'q bo'lib olamga nomi taralgan. O'g'lonlarining aql ko'zi o'tkirligidan yerning orqa tomonini hammadan oldin ko'ra bilgan, osmondagi yulduzlar sanog'ini hammadan oldin aniq qilib ola bilgan. Shoirlari sher panjasiga panja urgan. Butun olamga hisob-kitobdan birinchilar qatorida dars bergan, dori-darmonlar bo'yicha sabog'i yetib bormagan o'lka qolmagan.

Shunday buyuk xalq, buyuk yurt 130 yil davomida o'zga xalqlarga qaram bo'lib qolganida ham, ko'plab xunrezliklarni boshidan o'tkazganida ham, ertami-kech o'z mustaqilligini yana qayta olish yo'li-da bir zum ham kurashishni to'xtatmagan. Ushbu yo'lda ming-minglab qurbonlar berib, qurbonlar sonini kamaytirish va asriy orzusi bo'lgan oliy maqsadi mus-

taqillikka erishish uchun kurash uslublarini o'zgartirib borgan va qulay fursatdan o'z vaqtida foydalana biladigan farzandlarini tarbiyalay olgan. Bunday qulay fursat, xalqimiz uzoq mashaqqatli yillar davomida orzu qilib kelgan fursat nihoyat 1991-yili yetib keldi. Xalqimizning baxtiga ushbu fursatni tezlashtira oladigan va undan o'z vaqtida foydalana bila oladigan mard o'g'loni, mard yo'lbo'shchisi Islom Karimov butun mas'uliyatni o'z gardaniga olgan holda butun jahonni larzaga keltirgan tantanavor ohangda bundan 30 yil muqaddam 1991-yilning 31-avgustida "Men shu bugundan e'tiboran 1-sentabni respublikamizda Mustaqillik kuni, umumxalq bayrami deb e'lon qilishni taklif etaman" deya do'stlariyam dushmanlariyam lol qoldirdi.

Vatanim, men sen bilan g'ururlanaman! Sen 30 yillik mustaqillik yillarida misli ko'rilmagan yutuqlarga erishding. Transport muammosi yo'q bo'ldi. Bu odamlar umriga bir necha yil umr qo'shib berdi. Dori-darmonlar muammosi yo'q bo'ldi; gilamdek o'z vaqtidagi tansiq buyum har qadamda xaridorga zor; bozorlar, do'konlar peshtaxtalari serobgar-chilikdan sinay deydi; xalqimizchalik kiyinishda, uy-joy qurishda, obodonchilik ishlarida didi yuqori xalq olamda yo'qligi mana endi bilindi. Yoshlarimizning ilimga bo'lgan tashnaligini qondirish uchun minglab maktab, litsey, kollej, oliy maktablar xizmatga bel bog'lab turibdi. Yoshlar uchun, ayniqsa, barcha yo'llar ochiq; bir paytlardagi olimlarimizga nisbatan imkoniyatlari kattaroq, ular kashf qilolmagan kashfiyotlarni ocha olishadi; bir paytlardagi talaba va aspirantlarga nisbatan o'qish va yotoqxonalariga yorug'roq. Ular erisha olmagan bilimlar-

ga erisha oladi. Bir paytlardagi xalqimiz farzandlariga nisbatan tili biyronroq. Barcha xalqlarni lol qoldirib ularning tilida barcha jabhalarda biyron gaplasha olishadi.

O'zbekistonning, o'zbek xalqining o'tmishi buyuk. Barcha millatlar, mamlakatlar bilan tengma-teng, ochiqyuz bilan gaplasha oladi. Shu sababli kelajagi ham buyukdir. Bunga faqat telba yoki baxil odamlargina shubhalanishi mumkin. Xalqning buyukligi son jihatdan ko'pligida yoki maydonning ko'lamida emas, balki uning mehnatsevarligida, ilmga chanqoqligida, mehr-u oqibatida, mehmondo'stligida, andishaliligida, sabr-u toqatida, urf-odatlarida, har tomonlama o'ziga xosligidadir.

Buyuk kelajagimiz mustaqillikning birinchi kunidan, xalq asriy orzu-umidlari ro'yogba chiqarib, mustaqil bo'ldik, deb dadil aytilgan daqiqalardan boshlandi. Mana, buyuklik zinapoyasidan ulug'vor 30 odim tashladik. Demak, ushbu buyuklikning cho'qqisi tomon zalvorli 30 qadam qo'ydik, deb dadil aytalolamiz.

Xalqimizda: "Oqqan daryo oqaveradi", degan maqol bor. Ushbu ulug' daryo o'z o'zanini botir o'g'lonlarning mardona shijoati bois topib oldi. Endi u o'zining buyukligini namoyish etib oqaveradi, yo'lida uchraydigan har qanday xas-cho'p, to'siqlarni ag'darib o'tadi va buyuk saodat sohillari sari shitob bilan intilaveradi. Barchangizni O'zbekiston mustaqilligining 30 yilligi bilan tabriklayman! Ko'z tegmasin xalqimizning ushbu baxtiga!

Mansurxon TOIROV,
fizika-matematika fanlari doktori,
professor

Istiqloq shukuhi

O'zbekiston farzandiman

Ertatong. Quyosh osmon uzra yerga jilmayib mo'ralamoqda. Yam-yashil maysalar uzra qo'ngan shudring durlari ko'zni quvnatib tovlanmoqda. Daraxt shoxlaridagi chug'urchuqlar shoxdan-shoxga qo'nib vijirlab, tinchlik kuyini kuylamoqda.

Allaqayerdan xo'rozlarining tong bongi aralash uyqudan to'yib uyg'ongan go'dakning "inga'si, tandirda non yopib bir savat issiq non ko'tarib beshik oldiga shoshilgan onaning qizargan yanoqlaridagi mamnunlik hissi, olamga taralgan non isidan bahridiling yayraydi. Ko'chalarda allaqachon mashina motori guvillamoqda.

Bir muddat tabiatning musiqiy ohangiga mahliyo bo'lib, ruhingizni allaqanday sokinlik, xushbaxtlik egallab, ko'zlar beixtiyor sof, musaffo, g'uborsiz ko'm-ko'k osmon toqiga tushib bir juft oppoq kabutarning baxt qo'shig'ini qarsak chalib kuylayotganida dilingizdagi shukronalik duolari beixtiyor tillaringizga ko'chadi. Omonomon kunlarga, tinch, osuda, bayramlar bayramlarga ulangan

zamonda yashayotganingizdan qalban farah tuyib, ertalabki toza havodan sipqorasiz. Go'yo ko'ksingiz "ko'k"lashayotganday, o'zingizni beg'ubor osmondan qanot qoqib uchayotgan oppoq kabutarlar yonida qo'shilishib uchayotganday sezasiz.

Vatanim, men sening bepoyon dalalarini, keng pax-tazorlaringni, bog'-rog'laringni, saxiy, tanti odamlaringni... qaysi birini maqtayin?! To'rt faslda to'rt lam o'zgacha qiyofa kasb etsa-da, tabiatboboning shu yurt zaminiga ilohiy mehlrlar ila boqishi zamirida ham katta mehr-muhabbat balqib, quyosh bo'lib porlayotgandek tuyulaveradi.

Bugun Yurtimizning qay go'shasiga nazar solsangiz mustaqil yurt farzandlarining ko'ksi osmon qadar faxrga to'lib, qulo-chi yer yuziga yetgudek baxtiyor-

lik hissini tuyganliklarining guvohi bo'lasis. Yurtboshimizning odilona siyosati, ozod yurtning obodligi, tinchligi, odamlarning tinch-osuda yashashlari to'g'risida hamisha qayg'urishlarini, bizga yaratib berayotgan keng imkoniyatlarda ham ko'rishimiz mumkin. Mahallalarda oilalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari", "Temir daftar"larning yo'lga qo'yilib, chekka-chekka qishloqlargacha kirib borilib, ularning salomatligi, huquqiy muhofazasi, kasb-hunar egalashi, kredit asosida tadbirkorlikning yo'lga qo'yilishi, ijtimoiy bandligining Ta'minlanishi haqidagi bandlarning yaratilishida ham xalqni sevish, uning ertangi porloq kelajagiga tayyor yo'llanmani berish hech bir xorij davlatida bo'lgan emas. Ta'limga

bo'lgan e'tibor bobomiz Abdulla Avloniy Ta'biri bilan aytganda: "Yo hayot, yo mamot masalasi" darajasiga ko'tarilmoqda.

"Yangi O'zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi" deyilishida ham hikmat yashirin. Bugungi kunda sifatli Ta'limga, zamonaviy Ta'lim dargohlariga bo'lgan e'tibor dilni yayratadi. Xalqaro olimpiada g'oliblari, sovrindorlari, maktabni oltin medal bilan bitirgan o'quvchi yoshlar, kitobxonlik tanlovi g'oliblari mehri va hayrat bilan boqib ko'zingiz quvnaidi.

Hali maktab partasida o'tirgan, kasb-hunarga, tadbirkorlikka qiziqishi yuqori bo'lgan yoshlar bo'sh vaqt topdi deguncha hunarmand aka-opalaridan ish o'rganib, maktabni tugatgan zahoti o'z kelajagining poydevorini qo'yishmoqda. Davlat xizmatlarida ishlashni niyat qilgan yoshlar o'qib, izlanib, o'z maqsadlari sari dadil odimlammoqda. Sportchilarimiz mis-

li ko'rilmagan yutuqlar bilan jahon maydonida O'zbekiston bayrog'ini baland ko'tarishmoqda. Bularning bari yurtimizdagi tinchlik, uning ravnaqiga ishonch va mehmrang samarasi. Shovqinli shaharmi, keng ovulmi, yaydoq dalalarni, qay manzilga borsangiz, albatta, bunyodkorlik, yaratuvchanlik ishlarining ustidan chiqasiz. Yurtimizning har go'shasini gulzorga aylantirayotgan bog'bonlar-u qo'li gul hunarmand, quruvchi ustalar, dehqonlarga ofarinalar aytingiz, bag'ringizga bosgingiz keladi.

Mustaqillik bayrami yaqinlashishi bilan diyorimni chinlagan yurt madhi ohanglarini ruhan, qalban his qilaman. Ohangga mos yuragimdan shunday satrlar quyilib keladi: Vatan, mehri tomlarga qon bo'lib quyilib, yuraklarga jon bo'lib kirib, ona allasidek muqaddas, nondek laziz, farzanddek totli ne'matlar bilan bizni tinch-osuda quchog'ingda siylaganing uchun tashakkur!

Aziza BOYMURODOVA,
Kattaqo'rg'on tumani
28-maktab direktori



Tayanch o'quv reja

O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirining buyrug'i

Umumiy o'rtta ta'lim maktablari uchun 2021–2022-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejani tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-son qarori, 2020-yil 5–6-iyun kunlari Farg'ona viloyatiga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar va kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan yig'ilishning 42-sonli bayonining 88-bandini (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining 2020-yil 15-iyundagi 02-1890-son topshirig'i), Vazirlar Mahkamasi-ning "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida" 2019-yil 19-fevraldagi 146-son, "Umumiy o'rtta ta'lim muassasalarida "Turbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora- tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 6-iyuldagi 422-son qarorlari ijrosini ta'minlash, shuningdek, ta'lim-tarbiyaning samarali shakllari va usullarini joriy etish, umumiy o'rtta ta'lim maktablari uchun 2021–2022-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejani tasdiqlash maqsadida buyuraman:

tayanch o'quv rejadagi yangiliklar va tushuntirish xatining mazmun-mohiyatini har bir ta'lim muassasasiga yetkazish hamda pedagogik kengash yig'ilishlarida targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish vazifalari topshirilsin.

6. Umumiy o'rtta ta'lim muassasalarida tayanch o'quv rejani bajarish va natijalarini tahlil etib borish ishlariga hududiy xalq ta'limi boshqarmalari hamda ta'lim muassasalari rahbarlari shaxsan mas'ul etib belgilansin.

7. Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar bo'limi (L.Rustamova) umumiy o'rtta ta'lim maktablari uchun 2021–2022-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv reja va tushuntirish xatini vazirlikning veb-saytida yoritilsin.

8. Mazkur buyruq qabul qilinishi munosabati bilan Xalq ta'limi vazirining 2020-yil 25-fevraldagi "Umumiy o'rtta ta'lim maktablari uchun 2020–2021-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejani tasdiqlash to'g'risida"gi 52-sonli buyrug'i 2021-yil 1-iyuldan boshlab o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

9. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinborsari U.Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir **Sh.Shermatov**

Toshkent sh.,
2020-yil "9" dekabr,
297-son

1. Quyidagilar:

Ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan umumiy o'rtta ta'lim maktablari uchun 2021–2022-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv reja va tushuntirish xati 1-ilovaga muvofiq;

Ta'lim rus va qardosh tillarida olib boriladigan umumiy o'rtta ta'lim maktablari uchun 2021–2022-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv reja va tushuntirish xati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Qoraqalpog'iston Respublikasi hududidagi umumiy o'rtta ta'lim maktablari uchun 2021–2022-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv reja Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilishi va O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanishi inobatga olinsin.

3. Respublika ta'lim markazi (Sh. Sattarov) bir oy muddatda tayanch o'quv reja asosida tegishli o'quv dasturlarini ishlab chiqsin va o'rnatilgan tartibda tasdiqlash uchun Xalq ta'limi vazirligiga kiritilsin.

4. O'quv jarayonini metodik jihatdan ta'minlashni rivojlantirish boshqarmasi (D.Ermatov) Respublika ta'lim markazi va hududiy xalq ta'limi boshqarmalari bilan hamkorlikda tayanch o'quv rejaning mazmun-mohiyatini Avgust kengashlari va bevosita pedagogik jamoalarda keng tushuntirish ishlarini tashkil qilsin.

5. Qoraqalpog'iston Respublikasi xalq ta'limi vaziri, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari boshliqlariga:

2021–2022-o'quv yili davomida umumiy o'rtta ta'lim muassasalarida tayanch o'quv reja va uning tushuntirish xatida belgilangan vazifalarning bajarilishini ta'minlash;

umumiy o'rtta ta'lim muassasalarida 2021–2022-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejadan kelib chiqqan holda muassasa xodimlarining ish yuklama-

lari tarifakatsiyasi va dars jadvallarining ishlab chiqilishini ta'minlash;

2021-yilning 30-avgustiga qadar 2021–2022-o'quv yiliga mo'ljallangan

O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirining
2020-yil 9-dekabrda 297-buyrug'iga 1-ILOVA

Ta'lim o'zbek tilida bo'lgan umumiy o'rtta ta'lim maktablari uchun 2021–2022-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv reja

T/r	Fan nomlari	Haftalik o'quv soatlari (sinflar kesimida)										Haftalik umumiy soat	
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	10		11
I	Filologiya fanlari	10	11	11	11	11	11	10	10	10	9	9	113
1	Ona tili va adabiyot	8	7	7	7	6	6	5	5	5	4	4	64
2	Rus tili		2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	20
3	Chet tili	2	2	2	2	3	3	3	3	3	3	3	29
II	Ijtimoiy fanlar	1	1	1	1	3	3	4	5	5	4	4	32
4	Tarix					2	2	3	3	3	2	2	17
5	Davlat va huquq asoslari								1	1	1	1	4
6	Tarbiya	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	11
III	Aniq fanlar	5	5	5	5	6	6	6	6	7	7	7	65
7	Matematika	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	55
8	Informatika va axborot texnologiyalari					1	1	1	1	2	2	2	10
IV	Tabiiy va iqtisodiy fanlar	1	2	1	1	2	6	8	8,5	8,5	7	7	52
9	Fizika va astronomiya							2	2	2	2	2	12
10	Kimyo								2	2	2	2	10
11	Biologiya					1	2	2	2	2	2	2	13
12	Geografiya va iqtisodiyot			1	1	1	2	2	2,5	2,5	1	1	14
13	Tabiiy fan (Science)	1	2										3
V	Amaliy fanlar	5	5	5	5	6	6	6	4	4	3	3	52
14	Musiqqa madaniyati	1	1	1	1	1	1	1					7
15	Tasviriy san'at va chizmachilik	1	1	1	1	1	1	1	1	1			9
16	Texnologiya	1	1	1	1	2	2	2	1	1			12
17	Jismoniy tarbiya	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	22
18	Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik										1	1	2
Jami		22	24	23	23	28	32	34	33,5	34,5	30	30	314

tasdiqlandi

Ta'lim o'zbek tilida bo'lgan umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 2021–2022-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv reja TUSHUNTIRISH XATI

I. Asosiy tamoyillar

1. 2021–2022-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv reja quyidagi tamoyillarga yo'naltirilgan:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi asosida:

PISA(Programme for International Student Assessment), **PIRLS**(Progress in International Reading Literacy Study), **TIMSS**(Trends in Mathematics and Science Study) xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturida ishtirok etishga tayyorgarlik ko'rish;

"STEAM — ta'lim" (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics — biologiya, kimyo, fizika, informatika, matematika, tasviriy san'at, musiqa) dasturini joriy etish.

II. O'quv soatlarining taqsimlanishi

2. Tayanch o'quv reja da **"Ona tili va adabiyot"** fani uchun ajratilgan haftalik o'quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

1-sinfda o'quv yilining 1–2-choraklarida haftasiga 4 soat "Alifbe", 4 soat "Yozuv", 3–4-choraklarida 8 soat "Ona tili va o'qish savodxonligi" fani;

2-sinfda haftasiga 7 soat "Ona tili va o'qish savodxonligi" fani;

3–4-sinfda haftasiga 4 soat "Ona tili" va 2 soat "O'qish" fani, 5–6-sinfda haftasiga 4 soat "Ona tili" va 2 soat "Adabiyot" fani;

7–8-sinfda haftasiga 3 soat "Ona tili" va 2 soat "Adabiyot" fani;

9-sinfda haftasiga 2 soat "Ona tili" va 3 soat "Adabiyot" fani;

10–11-sinfda haftasiga 2 soat "Ona tili" va 2 soat "Adabiyot" fani o'qitiladi.

3. **Chet tili** fani 1–4-sinfda haftasiga 2 soatdan, 5–11-sinfda 3 soatdan o'qitiladi.

Yurtimizda ta'lim tizimida chet tili fani O'zbekiston Respublikasida Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 8-maydagi 124-son qarori bilan tasdiqlangan Uzlüksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standarti — Chet tillari bo'yicha ta'limning barcha bosqichlari bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarga muvofiq o'qitiladi.

Umumta'lim maktablarida xorijiy (ingliz, nemis, fransuz va boshqa) tillardan birini chet tili fani sifatida o'qitishda ota-onalarning talabi va o'quvchilarning xohish-istaklari, shuningdek ta'lim muassasasida ushbu fan bo'yicha malakali fan o'qituvchisi mavjudligi inobatga olinishi lozim.

Bunda, ota-onalar qo'mitasi ota-onalarning talabi va o'quvchilarning xohish-istaklari asosida ular tomonidan tanlangan xorijiy (ingliz, nemis, fransuz va boshqa) tillardan birini chet tili fani sifatida o'qitish to'g'risidagi iltimosnoma bilan ta'lim muassasasining pedagogika kengashiga murojaat qiladi. Ushbu murojaat ta'lim muassasasining pedagogika kengashida muhokama qilinadi va kengashning ushbu fanni chet tili sifatida o'qitilishi yoki asosli sabablari ko'rsatilgan holda o'qitish imkoniyati yo'qligi to'g'risida qaror qabul qiladi. Mazkur qaror asosida xorijiy (ingliz, nemis, fransuz va boshqa) tillardan biri

umumta'lim maktabida yoki ma'lum bir sinfda chet tili fani sifatida o'qitiladi.

4. **"Tarix"** fani uchun ajratilgan haftalik o'quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

7–8–9-sinfda "O'zbekiston tarixi" fani o'quv yilining 1–2-choraklarida haftasiga 1 soatdan, 3–4-choraklarida haftasiga 2 soatdan, "Jahon tarixi" fani o'quv yilining 1–2-choraklarida haftasiga 2 soatdan, 3–4-choraklarida haftasiga 1 soatdan o'qitiladi;

10–11-sinfda "O'zbekiston tarixi" fani haftasiga 1 soatdan, "Jahon tarixi" fani 1 soatdan o'qitiladi.

5. **"Tarbiya"** fani 1–11-sinfda 1 soatdan o'qitiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi 422-son "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fani 2020–2021-o'quv yilida 1–9-sinf, 2021–2022-o'quv yilidan 10–11-sinfarga joriy etildi.

"Tarbiya" fani dars soatlarini 1–4-sinfda boshlang'ich sinf rahbarlariga, 5–11-sinfda esa o'tgan o'quv yillarida avvalo "Vatan tuyg'usi", "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fanlaridan dars bergan o'qituvchilarga, shuningdek, "Tarix", "Ona tili va adabiyot" fani o'qituvchilariga Xalq ta'limi vazirligi, Moliya vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligining 2020-yil 22-iyundagi 8-mh, 28-, 124/1-son qarori bilan tasdiqlangan umumta'lim muassasalarida sinflarni komplekslash hamda tarifikatsiya ro'yxatlarini shakllantirish tartibi to'g'risida nizomning (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 30-iyunda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3271) 15-bandi-da belgilangan ko'rsatkichlarning ustuvor ketma-ketligi asosida dars soatlarini taqsimlash tavsiya etiladi.

6. **"Matematika"** faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

1–6-sinfda "Matematika" fani haftasiga 5 soatdan;

7–11-sinfda "Algebra" fani 3 soatdan, "Geometriya" fani 2 soatdan o'qitiladi.

7. **"Fizika"** faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

6–10-sinfda "Fizika" fani haftasiga 2 soatdan, 11-sinfda "Fizika" fani 1,5 soat, "Astronomiya" fani haftasiga 0,5 soat o'qitiladi.

Bunda, 11-sinfda "Fizika" va "Astronomiya" fanlari mavzulari fan o'qituvchisi tomonidan tig'izlashtirilgan (mavzularni qo'shgan) holda o'tiladi va ushbu tig'izlashtirilgan mavzular sinf jurnalida ko'rsatiladi.

8. **"Tabiiy fan(Science)"** fani 1-sinfda haftasiga 1 soat, 2-sinfda 2 soat o'qitiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-son qarori bilan tasdiqlangan "2020–2025-yillarda kimyo va biologiya yo'nalishida uzluksiz ta'lim sifatini hamda

amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqotlar va innovatsiya ishlari natijadorligini oshirish bo'yicha maqsadli dastur"ning 6-bandida 1–6-sinfda atrofimizdagi olam, tabiatshunoslik, geografiya, biologiya, fizika fanlari o'rta ta'lim muassasalarini yagona fan sifatida 2021–2022-o'quv yilidan boshlab tajriba-sinov tariqasida o'qitishni bosqichma-bosqich joriy etish" vazifasi belgilangan.

Mazkur qaror ijrosini ta'minlash va ushbu fanni bosqichma-bosqich joriy etish maqsadida 2021–2022-o'quv yilida umumiy o'rta ta'lim muassasalarining faqatgina 1–2-sinfda "Atrofimizdagi olam" fani o'rta ta'lim Tabiiy fan(science) joriy etildi.

Mazkur fan kelgusi o'quv yillarida boshqa sinflarga ham bosqichma-bosqich joriy etiladi.

Ushbu tabiiy fan(science) darslari boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan o'tiladi.

9. **"Geografiya va iqtisodiyot"** faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

3–4-sinfda "Tabiatshunoslik" fani haftasiga 1 soatdan;

5-sinfda "Geografiya" fani haftasiga 1 soat, 6–9-sinfda 2 soatdan, 10-sinfda 1 soatdan;

8–9-sinfda "Iqtisodiy bilim asoslari" fani 0,5 soatdan;

11-sinfda "Tadbirkorlik asoslari" fani 1 soat o'qitiladi.

Bunda, 8–9-sinfda "Iqtisodiy bilim asoslari" fani mavzulari fan o'qituvchisi tomonidan tig'izlashtirilgan(mavzularni qo'shgan) holda o'tiladi va ushbu tig'izlashtirilgan mavzular sinf jurnalida ko'rsatiladi.

10. **"Tasviriy san'at va chizmachilik"** faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

1–7-sinfda "Tasviriy san'at" fani haftasiga 1 soatdan o'qitiladi;

8–9-sinfda "Chizmachilik" fani haftasiga 1 soatdan o'qitiladi.

11. O'zbekiston Respublikasi Hissob palatasining 2020-yil 24-fevraldagi 13/2-309-sonli ko'rsatmasiga muvofiq "Jismoniy tarbiya" faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

sport zali mavjud bo'lmagan umumta'lim muassasalarida "Jismoniy tarbiya" fani qishki davr (dekabr, yanvar, fevral oylari)da 1–11-sinfda haftasiga 1 soatdan o'qitiladi;

sport zali mavjud bo'lmagan umumta'lim muassasalarida "Jismoniy tarbiya" fani qishki davr (dekabr, yanvar, fevral oylari)da 1–11-sinfda mavzular fan o'qituvchisi tomonidan tig'izlashtirilgan (mavzularni qo'shgan) holda o'tiladi va ushbu tig'izlashtirilgan mavzular sinf jurnalida ko'rsatiladi.

III. Yakuniy qoidalar

12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2017-yil 15-martdagi 140-son qaroriga muvofiq:

malakali o'qituvchilar yetarli bo'lgan taqdirida o'quvchilar soni 25 nafar va un-

dan ziyod bo'lgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 1–11-sinfida "Chet tili" fani, ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim muassasalari va umumiy o'rta ta'lim maktablarining ixtisoslashtirilgan sinflarida ixtisoslashtirilgan fan, 5–11-sinfda "Informatika va axborot texnologiyalari", 2–11-sinfda "O'zbek tili/Rus tili", 8–11-sinfda "Jismoniy tarbiya", 5–9-sinfda "Texnologiya" fanlari ikki guruhga bo'lib o'qitiladi.

13. O'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda quyidagi muddatlarga amal qilina-

di:

o'quv yilining davomiyligi — 34 hafta (1-sinf uchun 33 hafta);

o'quv haftasining davomiyligi — 1–4-sinfda 5 kun, 5–11-sinfda 6 kun;

dars mashg'ulotining davomiyligi — 45 daqqa;

dars mashg'ulotlari oraliq idagi tanafus davomiyligi — 5–10 daqqa (o'quv kuni o'rtasidagi tanafusning davomiyligi — 15–30 daqqa).

14. Tegishli qonun hujjatlarida belgilangan bayram (ishlanmaydigan) kunlarida dars mashg'ulotlari o'tkazilmaydi.

Bayram(ishlanmaydigan) kunlariga to'g'ri kelib qolgan dars mashg'ulotlarining mavzulari o'quv dasturlarini ixchamlashtirgan holda keyingi dars mashg'ulotlarida o'tiladi.

15. O'quv yili davomidagi ta'tillarning muddatlari quyidagicha belgilanadi:

kuzgi ta'til — 4-noyabrdan boshlab 6 kalendar kuni;

qishki ta'til — 28-dekabrda boshlab 14 kalendar kuni;

bahorgi ta'til — 21-martdan boshlab 7 kalendar kuni;

yoziq ta'til — oxirgi bosqichli nazorat sinovi o'tkazilgan kundan (bosqichli nazorat o'tkazilmaydigan sinflar uchun o'quv yili tugagan kundan keyingi kundan) boshlab 1-sentabrgacha.

Ta'tilning oxirgi kuni bayram(ishlanmaydigan) kuniga to'g'ri kelib qolgan taqdirida, dars mashg'ulotlari keyingi ish kunidan boshlab davom ettiriladi.

1-sinf o'quvchilari uchun fevral oyi davomida qo'shimcha bir haftalik ta'til beriladi.

16. Mazkur tayanch o'quv reja va tushuntirish xati asosida har bir umumiy o'rta ta'lim muassasasi 2021–2022-o'quv yiliga mo'ljallangan o'quv reja ishlab chiqadi va avgust oyidagi Pedagogik Kengashining qarori bilan tasdiqlaydi.

17. Pedagog kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnika bazasi yetarli bo'lgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalarining ruxsati bilan umumiy o'rta ta'lim muassasalarining Pedagogik Kengashlariga o'quv rejani tuzishda tayanch o'quv rejadagi umumiy soatlar hajmidan oshmagan holda, ma'lum bir fanlarni chuqurlashtirib o'qitish maqsadida 15%gacha o'zgartirish kiritish haquqi beriladi.

Fanlarni chuqur o'rganish bo'yicha fan o'qituvchisi tomonidan ishlab chiqilgan o'quv dasturlaridan amaliyotda foydalanishga O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi tomonidan rasmiy tasdiqlangan taqdirida ruxsat etiladi.

18. Barcha turdagi davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalarida mazkur o'quv reja asosida tashkil etiladigan darslar (mashg'ulotlar) davlat budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.



Tayanch o'quv reja tasdiqlandi

Ta'lim rus va qardosh tillarida olib boriladigan umumiy o'rtta ta'lim maktablari uchun 2021–2022-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv reja

T/r	Fan yo'nalishlari va nomlari	Haftalik o'quv soatlari (sinflar kesimida)										Haftalik umumiy soat	
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	10		11
I	Filologiya fanlari	10	11	11	11	11	11	10	10	10	9	9	113
1	Ona tili va adabiyot	8	7	7	7	5	5	4	4	4	3	3	57
2	O'zbek tili/Rus tili	2	2	2	2	3	3	3	3	3	3	3	27
3	Chet tili	2	2	2	2	3	3	3	3	3	3	3	29
II	Ijtimoiy fanlar	1	1	1	1	3	3	4	5	5	4	4	32
4	Tarix					2	2	3	3	3	2	2	17
5	Davlat va huquq asoslari								1	1	1	1	4
6	Tarbiya	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	11
III	Aniq fanlar	5	5	5	5	6	6	6	6	7	7	7	65
7	Matematika	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	5	55
8	Informatika va axborot texnologiyalari					1	1	1	1	2	2	2	10
IV	Tabiiy va iqtisodiy fanlar	1	2	1	1	2	6	8	8,5	8,5	7	7	52
9	Fizika va astronomiya						2	2	2	2	2	2	12
10	Kimyo							2	2	2	2	2	10
11	Biologiya					1	2	2	2	2	2	2	13
12	Geografiya va iqtisodiyot			1	1	1	2	2	2,5	2,5	1	1	14
13	Tabiiy fan (Science)	1	2										3
V	Amaliy fanlar	5	5	5	5	6	6	6	4	4	3	3	52
14	Musiq madaniyati	1	1	1	1	1	1	1					7
15	Tasviriy san'at va chizmachilik	1	1	1	1	1	1	1	1	1			9
16	Texnologiya	1	1	1	1	2	2	2	1	1			12
17	Jismoniy tarbiya	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	22
18	Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik										1	1	2
Jami		22	24	23	23	28	32	34	33,5	34,5	30	30	314

Ta'lim rus va qardosh tillarida olib boriladigan umumiy o'rtta ta'lim maktablari uchun 2021–2022-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejaga TUSHUNTIRISH XATI

I. Asosiy tamoyillar

1. 2021–2022-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv reja quyidagi tamoyillarga yo'naltirilgan:

O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi asosida:

PISA (Programme for International Student Assessment), PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study), TIMSS (Trends in Mathematics and Science Study) xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturida ishtirok etishga tayyorgarlik ko'rish;

“STEAM - ta'lim” (Science-tabiiy fanlar, Technology-texnologiyalar, Engineering-mexmik ijodkorlik, Art-san'at, Mathematics-matematika) dasturini joriy etish.

II. O'quv soatlarining taqsimlanishi:

Tayanch o'quv rejada **“Ona tili va adabiyot”** fani uchun ajratilgan haftalik o'quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

1-sinfda o'quv yilining 1–2-choraklarida haftasiga 4 soat **“Alifbe”**, 4 soat **“Yozuv”**, 3–4-choraklarida 8 soat **“Ona tili va o'qish savodxonligi”** fani;

2-sinfda haftasiga 7 soat **“Ona tili va o'qish savodxonligi”** fani;

3–4-sinflarda haftasiga 4 soat **“Ona tili”** va 3 soat **“O'qish”** fani;

5–6-sinflarda haftasiga 3 soat **“Ona tili”** va 2 soat **“Adabiyot”** fani;

7–9-sinflarda haftasiga 2 soat **“Ona tili”** va 2 soat **“Adabiyot”** fani;

10–11-sinflarda haftasiga 1 soat **“Ona tili”** va 2 soat **“Adabiyot”** fani o'qitiladi.

3. Tayanch o'quv rejada **“O'zbek tili/rus tili”** fani uchun 2–4-sinflarda haftasiga 2 soatdan, 5–11-sinflarda haftasiga 3 soatdan ajratilgan bo'lib, ushbu fanlar quyidagi taqsimot asosida o'qitiladi:

ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan ta'lim muassasalarida **“O'zbek tili”** fani 2–4-sinflarda 2 soatdan, 5–11-sinflarda 3 soatdan o'qitiladi;

ta'lim qoraqalpoq, qozoq, qirg'iz, tojik va turkman tillarida olib boriladigan maktablarda **“Rus tili”** fani o'quvchilar va ota-onalar (yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar)ning xohishi (qarori)ga ko'ra, 2-sinfdan boshlab **“Ona tili va adabiyot”** fanidan 1 soat olinib o'qitilishi mumkin.

4. **Chet tili** fani 1–4-sinflarda haftasiga 2 soatdan, 5–11-sinflarda 3 soatdan o'qitiladi.

Yurtimizda ta'lim tizimida chet tili fani O'zbekiston Respublikasida Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 8-maydagi 124-son qarori bilan tasdiqlangan Uzlüksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standart — Chet tillari bo'yicha ta'limning barcha bosqichlari bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablariga muvofiq o'qitiladi.

Umumta'lim maktablarida xorijiy (ingliz, nemis, fransuz va boshqa) tillardan birini **chet tili** fani sifatida o'qitishda

ota-onalarning talabi va o'quvchilarning xohish-istaklari, shuningdek ta'lim muassasasida ushbu fan bo'yicha malakali fan o'qituvchisi mavjudligi inobatga olinishi lozim.

Bunda, ota-onalar qo'mitasi ota-onalarning talabi va o'quvchilarning xohish-istaklari asosida ular tomonidan tanlangan xorijiy (ingliz, nemis, fransuz va boshqa) tillardan birini **chet tili** fani sifatida o'qitish to'g'risidagi iltimosnoma bilan ta'lim muassasasining pedagogika kengashiga murojaat qiladi. Ushbu murojaat ta'lim muassasasining pedagogika kengashida muhokama qilinadi va kengashning ushbu fanni chet tili sifatida o'qitilishi yoki asosli sabablari ko'rsatilgan holda o'qitish imkoniyati yo'qligi to'g'risida qaror qabul qiladi. Mazkur qaror asosida xorijiy (ingliz, nemis, fransuz va boshqa) tillardan biri umumta'lim maktabida yoki ma'lum bir sinfda **chet tili** fani sifatida o'qitiladi.

5. **“Tarix”** fani uchun ajratilgan haftalik o'quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

7–8–9-sinflarda **“O'zbekiston tarixi”** fani o'quv yilining 1–2-choraklarida haftasiga 1 soatdan, 3–4-choraklarida haftasiga 2 soatdan, **“Jahon tarixi”** fani o'quv yilining 1–2-choraklarida haftasiga 2 soatdan, 3–4-choraklarida haftasiga 1 soatdan o'qitiladi;

10–11-sinflarda **“O'zbekiston tarixi”** fani haftasiga 1 soatdan, **“Jahon tarixi”** fani 1 soatdan o'qitiladi.

6. **“Tarbiya”** fani 1–11-sinflarda 1 soatdan o'qitiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **“Umumiy o'rtta ta'lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”** 2020-yil 6-iyuldagi 422-son qaroriga muvofiq umumiy o'rtta ta'lim muassasalarida **“Tarbiya”** fani 2020–2021-o'quv yilida 1–9-sinflar, 2021–2022-o'quv yilidan 10–11-sinflarga joriy etildi.

“Tarbiya” fani dars soatlarini 1–4-sinflarda boshlang'ich sinf rahbarlariga, 5–11-sinflarda esa o'tgan o'quv yillarida avvalo **“Vatan tuyg'usi”**, **“Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari”** fanlaridan dars bergan o'qituvchilarga, shuningdek, **“Tarix”**, **“Ona tili va adabiyot”** fani o'qituvchilariga Xalq ta'limi vazirligi, Moliya vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligining 2020-yil 22-iyundagi 8-mh, 28-, va 124/1-son qarori bilan tasdiqlangan **“Umumta'lim muassasalarida sinflarni komplekslash hamda tarifikatsiya ro'yxatlarini shakllantirish tartibi to'g'risida nizomning (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 30-iyunda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3271) 15-bandida belgilangan ko'rsatkichlarning ustuvor ketma-ketligi asosida dars soatlarini taqsimlash tavsiya etiladi.**

7. **“Matematika”** faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

1–6-sinflarda **“Matematika”** fani haftasiga 5 soatdan;

7–11-sinflarda **“Algebra”** fani 3 soatdan, **“Geometriya”** fani 2 soatdan o'qitiladi.

8. **“Fizika”** faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

6–10-sinflarda **“Fizika”** fani haftasiga 2 soatdan, 11-sinfda **“Fizika”** fani 1,5 soat, **“Astronomiya”** fani haftasiga 0,5 soat o'qitiladi.

Bunda, 11-sinfda **“Fizika”** va **“Astronomiya”** fanlari mavzulari fan o'qituvchisi tomonidan tig'izlashtirilgan (mavzularni qo'shgan) holda o'tiladi va ushbu tig'izlashtirilgan mavzular sinf jurnalida ko'rsatiladi.

9. **“Tabiiy fan (Science)”** fani 1-sinfda haftasiga 1 soat, 2-sinfda 2 soat o'qitiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **“Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”** 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-son qarori bilan tasdiqlangan **“2020–2025-yillarda kimyo va biologiya yo'nalishida uzluksiz ta'lim sifatini hamda amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqotlar va innovatsiya ishlari natijadorligini oshirish bo'yicha maqsadli dastur”**ning 6-bandida 1–6-sinflarda atrofimizdagi olam, tabiatshunoslik, geografiya, biologiya, fizika fanlari o'miga tabiiy fan (science)ni yagona fan sifatida 2021–2022-o'quv yilidan boshlab tajriba-sinov tariqasida o'qitishni bosqichma-bosqich joriy etish vazifasi belgilangan.

Mazkur qaror ijrosini ta'minlash va ushbu fanni bosqichma-bosqich joriy qilish maqsadida 2021–2022-o'quv yilida umumiy o'rtta ta'lim muassasalarining faqatgina 1–2-sinflarida **“Atrofimizdagi olam”** fani o'miga Tabiiy fan (science) joriy etildi. Mazkur fan kelgusi o'quv yillarida boshqa sinflarga ham bosqichma-bosqich joriy etiladi.

Ushbu tabiiy fan (science) darslari boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan o'tiladi.

10. **“Geografiya va iqtisodiyot”** faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi: 3–4-sinflarda **“Tabiatshunoslik”** fani haftasiga 1 soatdan;

5-sinfda **“Geografiya”** fani haftasiga 1 soat, 6–9-sinflarda 2 soatdan, 10-sinf 1 soat; 8–9-sinflarda **“Iqtisodiy bilim asoslari”** fani 0,5 soatdan;

11-sinfda **“Tadbirkorlik asoslari”** fani 1 soat o'qitiladi.

Bunda, 8–9-sinflarda **“Iqtisodiy bilim asoslari”** fani mavzulari fan o'qituvchisi tomonidan tig'izlashtirilgan (mavzularni qo'shgan) holda o'tiladi va ushbu tig'izlashtirilgan mavzular sinf jurnalida ko'rsatiladi.

11. **“Tasviriy san'at va chizmachilik”** faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

1–7-sinflarda **“Tasviriy san'at”** fani haftasiga 1 soatdan o'qitiladi;

8–9-sinflarda **“Chizmachilik”** fani haftasiga 1 soatdan o'qitiladi.

12. O'zbekiston Respublikasi Hissob palatasining 2020-yil 24-fevraldagi 13/2-309-sonli ko'rsatmasiga muvofiq **“Jismoniy tarbiya”** faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

Sport zali mavjud bo'lmagan umumta'lim muassasalarida **“Jismoniy tarbiya”** fani qishki davr (dekabr, yanvar, fevral oylari)da 1–11-sinflarda haftasiga 1 soatdan o'qitiladi;

Sport zali mavjud bo'lmagan umumta'lim muassasalarida **“Jismoniy tarbiya”** fani qishki davr (dekabr, yanvar, fevral oylari)da 1–11-sinflarda mavzular fan o'qituvchisi tomonidan tig'izlashtirilgan (mavzularni qo'shgan) holda o'tiladi va ushbu tig'izlashtirilgan mavzular sinf jurnalida ko'rsatiladi.

III. Yakuniy qoidalar

13. Ta'lim o'zbek tilida bo'lgan umumiy o'rtta ta'lim maktablari uchun 2021–2022-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejaga tushuntirish xatida belgilangan yakuniy qoidalar ta'lim rus va qardosh tillarida bo'lgan umumiy o'rtta ta'lim maktablari uchun ham amal qiladi.



Ildizi yurakka qadalgan tuyg'u

Vatan — uni har kim o'z tasavvurida turlicha talqin qiladi. Kimdir onaga qiyoslasa, kimdir jannatga, yana boshqa birov esa o'z uyiga o'xshatadi. Nima bo'lganda ham qiyoslangan barchasi yagona, inson uchun takrorlanmasdir...

Vatan — tug'ilgan tuprog'imiz, bolaligimiz o'tgan changko'chalar, yaqinlarimiz, ustozlarimiz, do'stlarimizni har kuni ko'rish imkoni bo'lgan muqaddas go'sha. O'zbekistonda tug'ilganimiz — bu eng buyuk baxt. Televizor yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali notinch yurtlarni, aholisi ko'chalarda sarson bo'layotgan, ayollari,

bolalari bir burda nonga zor ellarni ko'rib, beixtiyor tinchligimizga shukrona aytaman. Vatan tuyg'usini har qadamda his qilaman. Har tong osoyishta uyg'onganimda, oilam bag'rida salomat yashayotganim — bularning bari yana bir bor Vatanni sevishtga, shu yurtning tuprog'ini e'zozlashga turki beradi.

Tuyg'u — hissiyot tufayli yuzaga keladigan ta'sirchan ruhiy holat. Agar bu "tug'yon" Vatan tushunchasi bilan uyg'unlashib ketsa, Vatan tuyg'usi insonga bir umr hamroh, hamnafas bo'ladi. Vatanning nomi aytilishi bilan uning bag'rida o'tgan va o'tayotgan damlari hayajonlantirib yuboradi. Shuning uchun ham odamning his-tuyg'ulari, xotiralari, ma'naviy tarbiyasi, avvalo, faoliyat olib borayotgan "Vatan" bilan bog'liq. Masalan, Al-Buxoriy, Termiziy, Bobur kabi qalb sururi Vatan tug'yoniga aylangan buyuk bobokolonlarimizni eslaganimda, beixtiyor ustoz

bo'lganimdan faxrlanaman. Kelajakda ozod Vatan ifixorini kichkina qalbiga jo aylagan shogirdlarim katta ummonga aylanishidan g'ururlanaman.

Vatanga muhabbat hissi odamning qalbida tabiiy ravishda tug'iladi. Inson nasl-nasabini, kimligini bilgani sari esa bu tuyg'u ildiz otadi, yuksalib boradi. Bu ildiz qancha chuqur bo'lsa, tug'ilib o'sgan yurtga muhabbat ham shu qadar cheksiz bo'ladi.

Ona O'zbekistonim, jonajon o'lkam, Mustaqilligining 30 yilligi oshing muborak bo'lsin. Ilohim doimo gullab, yashnavyer!

Valijon ESHIMOV,
Chust shahridagi
7-DIMI ma'naviyat targ'ibotchisi

Askarova Zebo Zafarjonovnaning 14.00.01 — Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo'yicha "Anomal qon ketishi bo'lgan perimenopauza davridagi ayollarni olib borishni optimallashtirish" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.04/05.06.2020. Tib.114.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 7-sentabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100124, Toshkent shahri., Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 132-"A" uy.
Tel/faks: (71) 263-78-33, 263-84-83; e-mail: info@uzaig.uz

Ablakulova Shoxsanam Davronovnaning 14.00.01 — Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo'yicha "Genetik tekshiruv usullari yordamida odatiy homila tushishi profilaktikasini takomillashtirish" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan akusherlik va ginekologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.04/05.06.2020.Tib.114.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 7-sentabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100124, Toshkent shahri., Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 132-"A" uy.
Tel/faks: (71) 263-78-33, 263-84-83; e-mail: info@uzaig.uz

Shirinboyev Dilmuhammad Nuroliyevichning 11.00.03 — Quruqlik gidrologiyasi. Suv resurslari. Gidrokimy o'xshashligi bo'yicha "Zarafshon daryosi suv rejimining antropogen omillar ta'sirida o'zgarishi" mavzusidagi (geografiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Gidrometeorologiya ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27/30.12.2019.Gr.47.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 30-avgust kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100052, Toshkent shahri, Bodomzor yo'li 1-tor ko'chasi, 72-uy.
Tel/faks: (71) 235-85-12, 237-13-19; e-mail: nigmi@albatros.uz

Imomov Musurmon Pirnazarovichning 13.00.05 — Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Professional ta'lim muassasalari o'quvchilarining kasbiy madaniyatini kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish metodikasini takomillashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta'limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.48.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 15-sentabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 76-uy.
Tel/faks: (71) 246-92-17, 246-90-37; e-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz

Tolibov Nodirjon Norqulovichning 13.00.05 — Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Bo'lajak uchuvchi-muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta'limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019. Ped.48.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 8-sentabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 76-uy.
Tel/faks: (71) 246-92-17, 246-90-37; e-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz

Rizayev Elyor Alimjonovichning 14.00.21 — Stomatologiya va 14.00.33 — Jamiyat salomatligi. Sog'liqni saqlashda menejment ixtisosliklari bo'yicha "Tarqalgan parodontitlarning ustuvor patogenetik rivojlanish mexanizmi asosida uning parsonifitsirlangan davosini asoslash" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat stomatologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019.Tib.59.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 9-sentabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Muxtumquli ko'chasi, 103-uy.
Tel/faks: (71) 230-20-65, 230-47-99; e-mail: tdsi2016@mail.ru

Axmedov Erkin Raxmonovichning 13.00.05 — Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Virtual ta'lim texnologiyalari vositasida umumkasbiy fanlarni o'qitish metodikasini takomillashtirish (texnika yo'nalishi o'liy ta'lim muassasalari misolida)" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta'limi boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.48.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 8-sentabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 76-uy.
Tel/faks: (71) 246-92-17, 246-90-37, e-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz

Agzamova Manzura Adxamovnaning 02.00.10 — Bioorganik kimyo ixtisosligi (kimyo fanlari) bo'yicha "Astragalus turkumiga oid o'simliklarning triterpenoidlari: tuzilishi, kimyoviy modifikatsiyasi va biologik faolligi" mavzusidagi (kimyo fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'simlik moddalari kimyosi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.01.2020.K/T.104.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 9-sentabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-uy. O'simlik moddalari kimyosi instituti binosi.
Tel faks: (71) 262-59-13, 262-73-48, 120-64-75.

Shoymuradov Abrorning 06.01.08 — O'simlikshunoslik ixtisosligi bo'yicha "Qashqadaryo viloyati sharoitida qattiq bug'doy yetishtirish agrotexnologiyasini takomillashtirish" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/30.10.2020.Qx.126.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 10-sentabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 170600, Andijon viloyati, Andijon tumani, Kuyganoy SHFY, Oliygo'k ko'chasi, 1-uy. Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutining ma'muriy binosi, 1-qavat, anjumanlar zali.
Tel/faks: (74) 373-10-54, 373-13-63; e-mail:agaj info@edu.uz

Erkinov Shoxrux Shavkatbek o'g'lining 13.00.04 — Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Chuqurlashtirilgan ixtisoslashuv bosqichidagi futbolchilarning tayyorgarligida innovatsion metodlarning qo'llanilishi" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 30-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy. O'zDJTSU binosi.
Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27, 717-17-76; e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz

Serebryakov Yuriy Vladimirovichning 13.00.04 — Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Turli yuz toifasidagi bokschilarning musobaqa oldi tayyorgarlik bosqichidagi mashg'ulot vaqtlarini optimallashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 30-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy. O'zDJTSU binosi.
Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27, 717-17-76; e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz

Purxanatdinov Aman Purxanatdinovichning 05.09.05 — Qurilish materiallari va buyumlari ixtisosligi bo'yicha "Qorapalpog'iston xomashyo resurslari asosida keramzining energiya tejamlor tarkibini ishlab chiqish" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc 26/30.12.2019.T.11.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 8-sentabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100011, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 7-"v"uy.
Tel/faks: (71) 241-10-84, 241-80-00, 234-15-11;
e-mail: devon@taqi.uz, taqi atm@edu.uz

Izoh: O'tkazilayotgan barcha himoyalari O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markazning <http://himoya.bimm.uz> platformasi va ZOOM dasturi orqali onlayn (masofaviy) tarzda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti jamoasi O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, institut folklor bo'limi mudiri, filologiya fanlari doktori, professor

Mamatqul JO'RAYEVning
vafoti munosabati bilan ta'ziya izhor qiladi.



NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI JAMOASI

**barcha yurtdoshlarimizni Mustaqilligimizning
30 yilligi bilan qutlaymiz! Xalqimiz farovonligi,
Vatanimiz ravnaqi yo'lida mehnat qilish har
birimizning muqaddas burchimizdir.**



**Kelajagimiz
vorislari bo'lmish
yoshlarimizni
ma'nan yetuk,
kamil insonlar qilib
tarbiyalash biz
ustozlar uchun
sharafdir.**

Mustaqilligimiz abadiy bo'lsin!

Marifat

Ta'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq Ta'limi vazirligi,
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus Ta'lim vazirligi,
O'zbekiston Ta'lim va fan xodimlari kasaba
uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150. V-4820. Tiraji 7762.
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan,
qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabuxona — (71) 233-50-55;
kotihiyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi —
(71) 233-42-92 (faks), (71) 233-56-00.



"Marifat" dan
materiallarni ko'chirib
bosish tahririyat
ruxsati bilan amalga
oshirish shart.

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqiriz
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Navbatchi muharrir: Humoyun Quvondiqov.
Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxonalar manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.